2. Agrotexnik va boshqaruv xodimlarining raqamli va iqlimiy savodxonligini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
3. Iqlimga chidamli raqamli agrotexnologiyalarni xarid qilish uchun imtiyozli 'Yashil kredit' va subsidiyalar ajratish mexanizmini soddalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. FAO. (2022). Digital Opportunities for Climate-Smart Agriculture in Central Asia. Rome: FAO.
2. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report (CCDR). Washington, D.C.: World Bank Group.
3. Abdullayev, A.X. (2021). Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv. Toshkent: 'Fan'.
4. Ergashev, R.H., Murtazayev, O.I. (2022). Agrosanoat majmuida iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 4(2), 45-58.
5. Lipper, L., Thornton, P., Campbell, B. M., et al. (2014). Climate-smart agriculture for food security. Nature Climate Change, 4(12), 1068–1072.

Qaraqalpaqstan sharayatında teylerioz keselligin emlewde Buparvalek preparatın qollanıw hám keselleniw dárejesin anıqlaw

Allaniyazov Orinbay Uteniyazovich assistent · **Nurjanova Umida Oljabay qızı** magistr

Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar institutı

allaniyazovorinbay@gmail.com, umida04@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610084

Iqtibos uchun: Allaniyazov Orinbay Uteniyazovich, Nurjanova Umida Oljabay qızı. Qaraqalpaqstan sharayatında teylerioz keselligin emlewde Buparvalek preparatın qollanıw hám keselleniw dárejesin anıqlaw // Aralboyı aymaǵında suwdan paydalanıw nátiyjeliligi hám shorlanıwdıń awıl xojalıǵı eginleri zúráátligi hámde xalıqtıń turmıs iskerligine tásirin monitoring etiw hám qadaǵalaw ushın klimatqa shıdamlı innovaciyalıq texnologiyalardı islep shıǵıw: xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları. – Nókis, 2026. – B. 325–327. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610084

Annotaciya. Maqalalarda Qaraqalpaqstan Respublikası aymaǵında teylerioz benen keselleniwdiń házirgi jaǵdayı haqqında maǵlıwmatlar keltirilgen. Veterinariya preparatlarınıń rayonlarda tarqalıwı, profilaktikası hám emlew nátiyjeliligi úyrenilgen. Keselliktiń máwsimlik dinamikası, haywanlardıń keneler menen zıyanlanıwı anıqlanǵan.

Annotatsiya. Maqolalarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida teylerioz bilan kasallanishning hozirgi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Veterinariya preparatlarining tumanlarda tarqalishi, profilaktikasi va davolash samaradorligi o‘rganilgan. Kasallikning mavsumiy dinamikasi, hayvonlarning kanalar bilan zararlanishi aniqlangan.

Аннотация. В статье представлены данные о современной ситуации заболеваемости тейлериозом на территории Республики Каракалпакстан. Изучено распространение в районах, профилактика и лечение, эффективность применения ветеринарных препаратов. Определена сезонная динамика болезни, паразитирования животных клещами.

Abstract. The articles present data on the current state of theileriosis morbidity in the territory of the Republic of Karakalpakstan. The distribution in the districts, prevention, and treatment of the effectiveness of veterinary drugs were studied. The seasonal dynamics of the disease and the parasitism of animals by ticks have been determined.

Tayanısh sózler: teylerioz, piroplazmoz, invaziya, ektoparazit, parazit, qaramal, kene, teyleriya.
Kalit so‘zlar: teylerioz, piroplazmoz, invaziya, ektoparazit, parazit, qoramol, kana, teyleriya.
Ключевые слова: тейлериоз, пироплазмоз, инвазия, эктопаразит, паразит, крупный рогатый скот, клещ, тейлерий.
Keywords: theileriosis, piroplasmosis, invasion, ectoparasite, parasite, cattle, tick, Theileria.

Kirisiw

Ózbekstan aymaqlarında eń ıssı klimatlı zona esaplanıp, qaramallardıń qan-parazitar keselliklerı keń tarqalǵan bolıp, sharwashılıqqa úlken ekonomikalıq zıyan keltiretuǵın kesellik esaplanadı. Bul máwsimlik kesellik bolıp, haywanlarda ushırasatuǵın barlıq juqpalı hám invazion keselliklerdiń 10-15 procentin quraydı. Kesellenip táwir bolǵan haywanlar uzaq waqıt dawamında ónimdarlıǵınıń tek ǵana 70 procentin tikley aladı. Teylerioz keselligi iksodid keneler arqalı juǵatuǵın transmissiv kesellikler toparına kirip, ózlestirilmegen jerlerdiń úlken bólegi hám qan sorıwshı kenelerge qarsı jobalastırılǵan ilajlardıń joqlıǵı kenelerdiń kóbeyiwine hám aktivlesiwine alıp keledi. Bunnan tısqarı, qan sorıwshı ektoparazitler-kene, sociallıq áhmiyetke iye bolıp, qaramallardıń qan-parazitar keselliklerıniń kelip shıǵıwı hám tarqalıwında ayrıqsha orın tutadı. Teylerioz keselligi júdá

keskin ótiwi, bul kesellikti emlew ushın dári preparatlarınıń júdá sheklengenligi sebepli kesellikti óz waqtında emlewde úlken qıyınshılıqlar keltirip shıǵarmaqta.

Materiallar hám usıllar

Teylerioz keselligi Qaraqalpaqstan Respublikamız aymaqlarında eń kóp tarqalǵan rayonlarımızdan Bozataw, Kegeyli, Shımbay, Qaraózek, Taxtakópir. Bul rayonlarda keselliklerdiń epizootologiyası, yaǵnıy kenelerdiń qoziwı, zıyanlaw dáwiri, keselliklerge shatılıwı úyrenildi. Usı aymaqlardaǵı qaramallardıń teylerioz benen kesellengenligin anıqlaw ushın 100 bas qaramaldan úlgiler alındı. Alınǵan qannan qan súrtpelerin tayarlap tekseriw arqalı ámelge asırıldı. Mallar jayılǵan jerler, jaylawlardan barıp kórilip, iksodid keneler tekserildi. Teylerioz keselligine diagnoz qoyıw ushın súrtpeler tayarlanıp, Romanovskiy-Gimza usılında boyaldı hám mikroskopik tekserilip kórildi.

Izertlew nátiyjeleri

Qaramallardıń protozoy keselliklerı arasında eń keń tarqalǵan hám úlken zıyan keltiretuǵın keselliklerden biri bul teylerioz keselligi bolıp tabıladı. Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlarında eń kóp tarqalǵan Bozataw, Kegeyli, Shımbay, Qaraózek, Taxtakópir rayonlarımızdan veterinariya laboratoriyasına alıp kelingen úlgilerdi tekseriw nátiyjelerine bola, teylerioz keselliginiń tarqalıw dinamikasında úyrenildi **(1-keste)**. Alınǵan nátiyjelerge kóre, Respublikamızdıń usı aymaqlarında teylerioz keselliginen nasawlam esaplanadı. Teyleriozdıń tarqalıwı 2019-2022-jılları teylerioz keselliginiń kóterilgenligin kóremiz.

1-keste. Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlarında teyleriozdıń tarqalıw dinamikası boyınsha maǵlıwmatlar

q/s	Aymaqlar atı	2019		2020		2021		2022	
		úlgi sanı	Unamlı nátiyje	úlgi sanı	Unamlı nátiyje	úlgi sanı	Unamlı nátiyje	úlgi sanı	Unamlı nátiyje
1.	Bozataw	32	25	35	33	47	41	66	59
2.	Kegeyli	35	32	39	32	45	49	51	46
3.	Shımbay	39	46	41	52	48	35	53	42
4.	Qaraózek	38	33	42	35	50	47	53	48
5.	Taxtakópir	33	28	35	29	38	30	43	28

Haywanlardıń teylerioz benen keselleniw dárejesi derlik kesel haywanlarda kene menen zıyanlanıw dinamikasına sáykes keledi. Haywanlardıń juqtırıw dárejesin anıqlaw ushın súrtpeler tayarlanadı. Romanovskiy-Gimza usılında boyalıp, mikroskopta teyleriya bar ekenligi tekseriledi. Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlarında rayonlarımızdan kelgen nawqas haywanlar qan úlgilerinen tayarlanǵan úlgilerdi tekseriw nátiyjeleri sonı kórsetti, teylerioz benen keselleniw Bozataw hám Taxtakópir rayonlarında sáykes túrde 24,0% ten 44,0% ke shekem **(2-keste)**. Ulıwma aymaq boyınsha 35,83% ti quraydı. Teyleriozdıń máwsimlikligin úyreniw boyınsha aytıw múmkin, qaramallardıń teylerioz benen keselleniwiniń eń joqarı dárejesi (shoqqısı) iyun ayında kóteriledi (kesellengen qaramallardıń 30-40% ten kóbiregi).

2-keste. Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlarında qaramallardıń teylerioz benen keselleniw dárejesi

q/s	**Rayonlar atı**	**Qan úlgileri tekserilgen haywanlar sanı (bas)**	**Kesel haywanlar (bas)**	**Sonnan (%) esabında**
1.	Bozataw	25	6	24,0
2.	Kegeyli	25	8	32,0
3.	Shımbay	25	10	40,0
4.	Qaraózek	25	11	44,0
5.	Taxtakópir	20	8	40,0
	Jámi:	**120**	**43**	**35,83**

Sońǵı jılları Ózbekstan – Angliya – Rossiyada islep shıǵarılǵan «Buparvalek» tabıslı qollanılmaqta. Preparat 20 kg tiri salmaqqa 1 ml preparat dozasında bir márte qollanıladı, bul 1 kg ǵa 2,5 mg buparvakondı quraydı. Preparat bulshıq et arasına jiberiledi. Hindistanda islep shıǵarılǵan

«Bupakon». Preparat 20 kg tiri salmaqqa 1 ml preparat esabında bir márte qollanıladı, awır jaǵdaylarda 48 saattan keyin qayta qollanıw múmkin. Joqarıdaǵı preparatlar qollanılǵannan soń 7-8 saattan keyin kesel haywannıń awhalı jaqsılanıwı baqlandı **(3-keste)**.

3-keste. Qaraqalpaqstan Respublikası sharayatında qaramallardıń teylerioz keselligine qarsı shanshıwda veterinariya preparatlarınıń nátiyjeliligin tallaw

№ q/s	Tekserilip atırǵan kesel haywanlardıń klinik kórsetkishleri (bas)	Emlendi (bas)	Preparattıń nátiyjeliligi %	Qollanılǵan emlew ilajları
1-topar (qaramallar)				
1.	20	20	100	Buparvalek bulshıq et arasına 20 kg tiri salmaqqa 1 ml preparat. Awır túrlerinde birinshi márte jiberilgennen soń 48-72 saat ótkennen soń, sonday dozalarda qollanıladı.
2-topar (qaramallar)				
2.	10	10	75	Poliamidin 100 kg tiri salmaqqa 5 ml, simptomatik emlew vitamin B1, B12, V_C, kofein benzoat natriy.

Juwmaq hám usınıslar

1. Joqarıdaǵılardan kelip shıǵıp, qaramallar teylerioziniń aldın alıwda Rossiya hám Izrayil mámleketlerinde islep shıǵarılǵan vakcinalardı, ásirese, jas násilli qaramallarǵa qollanıw jaqsı nátiyje beredi. Teylerioz keselligin emlewde «Buparvalek» hám «Bupakon» preparatların tabıslı qollanıw múmkin.

2. Teyleriozdıń máwsimligin úyreniw boyınsha aytıw múmkin, qaramallardıń teylerioz benen keselleniwiniń eń joqarı dárejesi (shoqqısı) iyun ayında kóteriledi (kesellengen qaramallardıń 30-40% ten kóbiregi).

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Н. И. Степанова, Н. А. Казаков, В. Т. Заболоцкий и др. Протозойные болезни сельскохозяйственных животных. Москва Колос, 1982. - 352 с.
2. Н. М. Алтухов, В. И. Афанасьев, Б. А. Башкиров и др. Краткий справочник ветеринарного врача. Москва Агропромиздат, 1990. – 574
3. А. О. Орипов, «Гельминтозларга қарши курашишнинг замонавий стратегияси, услуб ва воситалари» Ж. Ветеринария медицинаси 2021 й. №11 17-19 бетлар.
4. Орипов А. О., Давлатов Р. Б., Йулдашев Н. Э. «Ветеринария гельминтологияси» ўқув қўлланма 2016 йил «Наврўз» нашриёти Тошкент
5. 3. Орипов А. О., Шакиев Е. С., Жумашев Р. Ж., «Распространение некоторых гельминтозов сельскохозяйственных животных в Приаралье»

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida siren bargli katalpa va yapon soforasi ko‘chatlarining (5–6 yoshli) o‘sishi va rivojlanishi

Ametova Sapargul Berdimuratovna q.x.f.d.

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti «O‘simlikchilik, o‘rmonchilik va landshaft dizayni» kafedrasi

Sapargulametova1985gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610085

Iqtibos uchun: Ametova Sapargul Berdimuratovna. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida siren bargli katalpa va yapon soforasi ko‘chatlarining (5–6 yoshli) o‘sishi va rivojlanishi // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 328–331. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610085

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining issiq, quruq va sho‘rlangan tuproqli sharoitida o‘stirilayotgan 5–6 yoshli siren bargli katalpa (Catalpa bignonioides Walt.) va yapon soforasi (Styphnolobium japonicum (L.) Schott) ko‘chatlarining o‘sishi hamda rivojlanishi tahlil qilingan.

Tadqiqotning maqsadi ikki tur daraxtlarining mintaqa sharoitiga moslashuvini baholash va ularni ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida daraxtlarning balandligi, tana diametri, toj kengligi, yillik novdalar o‘sishi, barg o‘lchamlari, fenologik fazalari va omon qolish darajasi o‘rganildi, tashqi holati besh ballik shkala bo‘yicha baholandi. Olingan ma’lumotlar variatsion statistika usullari bilan qayta ishlanadi. Adabiyot ma’lumotlari va mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turlar o‘sish jadalligi, namlikka talabchanligi va sho‘rlanishga munosabati bo‘yicha farq qiladi: katalpa tez o‘sadi, ammo muntazam sug‘orishni talab qiladi, yapon soforasi esa sekinroq o‘sadi va mintaqaning sho‘rlangan tuproqlarida parvarishga talabchan bo‘lishi mumkin. Maqolada, shuningdek, daraxtlarning toj shakllanishi va dekorativligi, qishga chidamliligi, zararkunanda va kasalliklarga munosabati hamda agrotexnik tavsiyalar yoritilgan.

Natijalar ushbu turlarni aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirishda to‘g‘ri agrotexnika sharoitida qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, siren bargli katalpa, yapon soforasi, ko‘chat, o‘sish, rivojlanish, sho‘rlanish, ko‘kalamzorlashtirish.

Kirish

Orol dengizi havzasining qurishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik sharoitiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi: iqlim keskin kontinental tus oldi, tuproq va gruntning sho‘rlanishi kuchaydi, chang-tuz ko‘chishi ko‘paydi. Bunday sharoitda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, himoya o‘rmon yo‘laklarini barpo etish va mavjud daraxt turlari assortimentini kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Faqat tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, qurg‘oqchilikka va sho‘rlanishga chidamli, shu bilan birga manzarali xususiyatlarga ega turlargina muvaffaqiyatli o‘sadi.

Siren bargli katalpa (Catalpa bignonioides Walt., oilasi Bignoniaceae) — Shimoliy Amerikaning janubi-sharqidan kelib chiqqan, balandligi 10–15 m ga yetadigan, yirik yurak shaklidagi barglari va yozning boshida ochiladigan oq, ichki tomoni sariq-binafsha dog‘li gullari bilan ajralib turadigan bargini to‘kuvchi daraxt. Yapon soforasi (Styphnolobium japonicum (L.) Schott, sin. Sophora japonica L., oilasi Fabaceae) esa Xitoy va Koreya hududlaridan kelib chiqqan, tuxumsimon patsimon murakkab bargli, yoz o‘rtasida—oxirida krem rangli gullaydigan, shahar sharoitiga, changlanishga va qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli, balandligi 15–25 m gacha yetuvchi daraxtdir [1, 2].

Har ikki tur O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida manzarali daraxt sifatida keng ekilgan. Biroq ularning Qoraqalpog‘iston sharoitida, ayniqsa, 5–6 yoshli, ya’ni ko‘chat davridan barqaror o‘sish bosqichiga o‘tgan davrdagi o‘sishi va rivojlanishi yetarlicha o‘rganilmagan [4]. Mazkur tadqiqotning maqsadi — ushbu ikki turning 5–6 yoshli daraxtlarining mintaqa sharoitidagi o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ularni solishtirib baholashdan iborat.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida 5–6 yoshli siren bargli katalpa va yapon soforasi daraxtlari tanlandi. Kuzatuvlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi ko‘kalamzorlashtirish uchastkalarida olib borildi. Maydon tuproqlari asosan o‘tloqi-allyuvial bo‘lib, turli darajada sho‘rlanganligi va gruntli suvlarning nisbatan yaqin joylashganligi bilan tavsiflanadi. Mintaqa iqlimi keskin kontinental: yozi juda issiq va quruq (havo harorati ayrim kunlari +40…+45 °C gacha ko‘tariladi), qishi sovuq (−25 °C va undan past), yillik yog‘in miqdori taxminan 100–120 mm ni tashkil etadi.

Har bir tur bo‘yicha bir xil yoshdagi, tashqi ko‘rinishi jihatidan tipik model daraxtlar tanlab olindi. Daraxtlar parvarishi (sug‘orish, begona o‘tlarni yulish, tuproqni yumshatish) hududda qabul qilingan agrotexnika qoidalariga muvofiq amalga oshirildi. O‘lchovlar vegetatsiya davrining oxirida (oktabr oyida) o‘tkazildi. Quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

- daraxt balandligi (m) — o‘lchov rakkasi yoki balandlik o‘lchagich yordamida;
- tana diametri (sm) — tuproq sathidan 1,3 m balandlikda, kaliper yoki o‘lchov lentasi bilan;
- toj kengligi (m) — ikki o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishda o‘lchangan o‘rtacha qiymat;
- yillik novdalar bo‘yi (sm) — joriy yil o‘sish qiymati;
- barg plastinkasi uzunligi va kengligi (sm), o‘rtacha 30 ta barg bo‘yicha;
- fenologik fazalar: kurtak yozilishi, gullash, mevalash, barg to‘kilishi;
- omon qolish darajasi (%) va tashqi holat (sho‘rlanish, qurg‘oqchilik, zararkunanda va kasalliklardan shikastlanish) ballarda.

Daraxtlarning tashqi holati quyidagi besh ballik shkala bo‘yicha baholandi (1-jadval).

1-jadval. Daraxtlar holatini baholash shkalasi

Ball	Holati	Tavsifi
5	A’lo	Toj to‘liq shakllangan, barglar sog‘lom, shikastlanish belgilari yo‘q
4	Yaxshi	Toj yaxshi rivojlangan, barg chetlarida kuchsiz shikastlanish
3	Qoniqarli	O‘sish susaygan, tojning bir qismi siyraklashgan
2	Yomon	Novdalarning qurishi, barglarning erta to‘kilishi, kuchli shikastlanish
1	Juda yomon	Daraxtning katta qismi qurigan yoki nobud bo‘lish arafasida

Olingan ma’lumotlar variatsion statistika usullari bilan qayta ishlandi: o‘rtacha arifmetik qiymat (M), uning xatoligi (±m), variatsiya koeffitsiyenti (V, %) va aniqlik ko‘rsatkichi (P, %) hisoblandi. Turlar o‘rtasidagi farqning ishonchliligi Styudent mezoni (t) bo‘yicha baholandi [3].

Natijalar

Tadqiqot davomida 5–6 yoshli daraxtlarning asosiy morfometrik ko‘rsatkichlari (balandlik, tana diametri, toj kengligi, yillik o‘sish, barg o‘lchamlari) hamda omon qolish darajasi baholandi. Qoraqalpog‘iston sharoitida har ikki tur ham o‘sish ritmini saqlab qoldi, biroq o‘sish jadalligi va suv rejimiga talabchanligi bo‘yicha turlar o‘rtasida farq kuzatildi.

Natijalarni tahlil qilishda quyidagi biologik xususiyatlarni hisobga olish zarur. Katalpa tez o‘suvchi tur bo‘lib, yirik bargli toj hosil qiladi va suv bilan ta’minlanishga sezgir: sug‘orish yetarli bo‘lganda yillik o‘sish yuqori bo‘ladi, quruq va issiq davrlarda esa barg chetlari qurishi va barglarning muddatidan oldin to‘kilishi mumkin. Yapon soforasi, aksincha, sekinroq, ammo

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610085

barqaror o‘sadi; chuqur ildiz tizimi hamda patsimon murakkab bargi suv bug‘lanishini kamaytiradi, bu esa uni qurg‘oqchilik va shahar muhitiga chidamli qiladi [2].

Rivojlanish fazalari (kurtaklarning yozilishi, gullash, mevalash, barg to‘kilishi) bo‘yicha kuzatuvlar o‘tkazildi. Fenologik muddatlar ob-havo sharoitiga bog‘liq holda yildan yilga o‘zgaradi, shu sababli kamida ikki–uch yillik ma’lumotlarni solishtirish tavsiya etiladi.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, katalpa odatda iyun oyida gullaydi va uzun dukkaksimon mevalari kuzgacha daraxtda saqlanadi, yapon soforasi esa iyul–avgust oylarida gullaydi, mevasi (munchoqsimon dukkak) kuzda pishadi [1, 2]. Mintaqaning issiq va quruq iqlimi sababli bu fazalar o‘rtacha iqlimli hududlarga nisbatan birmuncha erta boshlanishi mumkin.

Sho‘rlanish va qurg‘oqchilik ta’siri. Sho‘rlangan tuproqlarda daraxt ildizlari suvni o‘zlashtirishi qiyinlashadi, natijada o‘sish sekinlashadi va barglarda tuz stressi alomatlari (chetlarning qurishi, xloroz) paydo bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston sharoitida ekilgan daraxt-buta turlarining omon qolish ko‘rsatkichlari turlar bo‘yicha sezilarli farq qilishi qayd etilgan: Atamuratov va Baltaniyazov ma’lumotlariga ko‘ra, yapon soforasining omon qolish darajasi o‘rganilgan turlar orasida eng past bo‘lgan [4]. Bu mintaqaning sho‘rlangan tuproqlari va issiq-quruq iqlimi turning parvarishga bo‘lgan talabini oshirishini ko‘rsatadi. Bunday farq turlarning ildiz tizimi tuzilishi, barg yuzasi va suv sarfi bilan izohlanadi. Katalpa uchun muntazam sug‘orish va tuproq namligini saqlash (mulchalash) muhim; yapon soforasi esa nisbatan kam sug‘orishga bardosh beradi.

Qishga chidamlilik. Keskin kontinental iqlim sharoitida salbiy haroratlar yosh novdalarning uchlari qurishiga olib kelishi mumkin. Yapon soforasi qishga nisbatan chidamliroq, katalpada esa o‘ta sovuq qishlarda yosh novdalar uchlari qurish ehtimoli yuqoriroq. Umuman olganda, ikkala tur ham 5–6 yoshda mintaqa sharoitiga moslashish belgilarini ko‘rsatdi: daraxtlar omon qoldi, toj shakllandi, gullash va mevalash kuzatildi.

O‘sish dinamikasi va ildiz tizimi. 5–6 yoshli davr daraxtlar uchun ko‘chat bosqichidan barqaror o‘sishga o‘tish davri hisoblanadi: bu yoshda yillik o‘sish ritmi shakllanadi, ildiz tizimi chuqurlashadi va daraxt sug‘orish hamda tuproq sharoitidagi qisqa muddatli o‘zgarishlarga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Katalpaning ildizlari asosan yuza va o‘rta qatlamda tarqaladi, shu sababli u tuproq namligining pasayishiga tez javob beradi. Yapon soforasi esa o‘q ildiz va yon ildizlarning chuqur tarqalishi hisobiga chuqur qatlamdagi namlikdan foydalana oladi [2]. Bu farq qurg‘oqchil yoz oylarida turlarning o‘sish ko‘rsatkichlarida ham namoyon bo‘ladi.

2-jadval. Turlarning biologik xususiyatlari (adabiyot ma’lumotlari bo‘yicha) [1, 2]

Belgi	Siren bargli katalpa	Yapon soforasi
Oilasi	Bignoniaceae	Fabaceae
Kelib chiqishi	Shimoliy Amerika	Xitoy, Koreya
Balandligi	10–15 m	15–25 m
Barg tuzilishi	Oddiy, yirik, yurak shaklida	Murakkab, patsimon
Gullash davri	Iyun	Iyul–avgust
Mevasi	Uzun, ingichka dukkaksimon	Munchoqsimon dukkak
Namlikka talabi	Yuqori	O‘rtacha, qurg‘oqchilikka chidamli
Qimmati	Manzarali, soya beruvchi	Manzarali, asal beruvchi, shaharbop

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turlar morfologik tuzilishi, namlikka talabi va gullash muddatlari bo‘yicha sezilarli farq qiladi. Bu farqlar ularni ko‘kalamzorlashtirishda bir-birini to‘ldiruvchi tarzda qo‘llash imkonini beradi: iyun oyida katalpa, iyul–avgustda esa yapon soforasi gullashi bilan manzara uzoq vaqt saqlanadi. Bundan tashqari, sofora gullari asalarilar uchun qimmatli nektar manbai hisoblanadi.

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610085

Zararkunanda va kasalliklar. Daraxtlarning zararkunanda va kasalliklardan shikastlanishi ham nazorat qilindi. Umuman, ikkala tur ham yaxshi agrotexnika sharoitida jiddiy zararlanishga kam uchraydi, biroq bir-biriga yaqin ekilgan va yetarli sug‘orilmagan daraxtlar zaiflashib, zararkunandalarga nisbatan sezgir bo‘lib qoladi. Shu sababli profilaktik chora-tadbirlar, jumladan, tojni sanitar qirqish, tuproqni yumshatish va o‘z vaqtida sug‘orish muhim ahamiyatga ega.

Toj shakllanishi va dekorativlik. Manzarali daraxtlarning qimmati faqat o‘sish tezligi bilan emas, balki toj shakli, barg rangi va gullash davomiyligi bilan ham belgilanadi. Katalpa yirik barglari hisobiga zich, keng soya beruvchi toj hosil qiladi, bu issiq iqlimda ko‘cha va xiyobonlarda ayniqsa qimmatli. Yapon soforasi toji esa ochiqroq, yumaloq shaklda bo‘lib, murakkab bargli bo‘lganligi sababli yengil, nafis ko‘rinish beradi. Tojning shakllanishi va umumiy dekorativ holati ko‘rik asosida baholandi.

Mintaqada qo‘llash istiqbollari. Orol bo‘yi hududlarida chang va tuz ko‘chishining oldini olish uchun daraxt-buta ekinlaridan foydalanish ekologik jihatdan muhim. Yapon soforasi shahar muhiti, chang va qurg‘oqchilikka chidamliligi tufayli ko‘cha va xiyobonlarda qo‘llash uchun istiqbolli tur hisoblanadi, biroq mintaqaning sho‘rlangan tuproqlarida uning omon qolishi past bo‘lishi mumkinligi [4] ekish joyini ehtiyotkorlik bilan tanlashni talab qiladi. Siren bargli katalpa esa suv bilan muntazam ta’minlanadigan bog‘, skver va hovli ko‘kalamzorlashtirishida yaxshi natija beradi. Har ikki tur assortimentini kengaytirish mintaqa ko‘kalamzorlashtirishining turli-tumanligini oshiradi va birgina turga bog‘liq xavflarni, jumladan, ommaviy kasallanish xavfini kamaytiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, 5–6 yoshli daraxtlarning ko‘rsatkichlari ularning kelgusidagi o‘sishi haqida faqat dastlabki tasavvur beradi. Daraxtlarning mintaqa sharoitiga to‘liq moslashganligini baholash uchun kuzatuvlarni uzoq muddat, turli ob-havo sharoitlarini, jumladan, o‘ta qurg‘oqchil yillar va qattiq qishlarni qamrab olgan holda davom ettirish zarur.

Agrotexnik tavsiyalar. Olingan natijalar va adabiyot ma’lumotlari asosida quyidagilarni tavsiya etish mumkin: (1) ko‘chatlarni erta bahorda yoki kech kuzda ekish; (2) o‘sish davrida, ayniqsa, iyun–avgustda sug‘orishni muntazam o‘tkazish; (3) tuproq sho‘rlanishi yuqori bo‘lgan maydonlarda ekishdan oldin yuvish va drenaj ishlarini bajarish; (4) tojni shakllantirish uchun yosh daraxtlarda sanitar va shakl beruvchi qirqishni amalga oshirish; (5) katalpani shamoldan himoyalangan, soforani esa ochiq, quyoshli joylarda joylashtirish.

Xulosa va tavsiyalar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida 5–6 yoshli siren bargli katalpa va yapon soforasi daraxtlari mintaqaning issiq, quruq va sho‘rlangan sharoitiga moslashib, normal o‘sish va rivojlanish ko‘rsatdi.

2. Turlar o‘rtasida o‘sish jadalligi va suv rejimiga talabchanlik jihatidan farq mavjud: katalpa tez o‘sadi, ammo namlikka talabchan; yapon soforasi sekinroq o‘sadi va mintaqaning sho‘rlangan sharoitida parvarishga talabchan bo‘lishi mumkin.

3. Ushbu turlarni Qoraqalpog‘iston aholi punktlari, ko‘cha va xiyobonlarini ko‘kalamzorlashtirishda muntazam sug‘orish va to‘g‘ri agrotexnika ta’minlangan sharoitda qo‘llash mumkin. Mintaqada ularning uzoq muddatli (10 yildan ortiq) o‘sishini kuzatishni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rehder A. Manual of Cultivated Trees and Shrubs Hardy in North America. 2nd ed. — New York: Macmillan, 1940.
2. Dirr M.A. Manual of Woody Landscape Plants. 5th ed. — Champaign: Stipes Publishing, 1998.
3. Булыгин Н.Е., Ярмишко В.Т. Дендрология. — М.: МГУЛ, 2003.
4. Atamuratov M.M., Baltaniyazov J.S. Qoraqalpog‘iston sharoitida ekilgan daraxt-buta turlarining o‘sishi va saqlanib qolish ko‘rsatkichi. — Zenodo, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15178018.

Orolbo‘yi qurg‘oqchil sharoitida no‘xat (Cicer arietinum L.) Zumrad va Polvon navlari hosil elementlariga biostimulyatorlarning ta’siri

Atabaev Izzat Bazarbaevich[1] tayanch doktorant · **Yuldasheva Zulfiya**[2]

[1]Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus
[2]Toshkent davlat agrar universiteti

atabaevizzat@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610086

Iqtibos uchun: Atabaev Izzat Bazarbaevich, Yuldasheva Zulfiya. Orolbo‘yi qurg‘oqchil sharoitida no‘xat (Cicer arietinum L.) Zumrad va Polvon navlari hosil elementlariga biostimulyatorlarning ta’siri // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 332–335. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610086

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumani sharoitida no‘xatning (*Cicer arietinum* L.) Zumrad va Polvon navlari hosil elementlariga biostimulyatorlarning ta’siri yoritilgan. Dala tajribasi 20 variant va 3 takrorlanishda o‘rnatildi: urug‘lar Kaliy gumat bilan (0,4–0,7 l/t) ishlandi, shoxlanish va gullash fazalarida Megafol va Aminokat 30 preparatlari bargdan sepildi; etalon sifatida Fitovak 20%, nazorat sifatida oddiy suv olindi. Biostimulyator qo‘llangan variantlarda nazoratga nisbatan o‘simlik bo‘yi, dukkak va urug‘lar soni hamda urug‘ vazni yuqori bo‘ldi. Zumrad navida eng yuqori urug‘ vazni Kaliy gumat 0,6 l/t va Aminokat 30 (0,4 va 0,5 l/ga) qo‘llangan variantda (10,64 g; nazoratda 6,85 g), Polvon navida Kaliy gumat 0,7 l/t va Aminokat 30 (0,5 va 0,6 l/ga) variantida (10,01 g; nazoratda 5,75 g) qayd etildi. Ikkala navda ham Aminokat 30 variantlarida o‘rtacha urug‘ vazni Megafol variantlariga nisbatan yuqori bo‘ldi. Maqolada keltirilgan ko‘rsatkichlar 20 ta o‘simlik o‘rtachasi bo‘lib, ularning statistik ishonchliligi keyingi bosqichda dispersion tahlil bilan baholanadi. Natijalar issiq va quruq iqlim sharoitida no‘xat yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishda biostimulyatorlardan foydalanish istiqbolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: no‘xat, Zumrad, Polvon, biostimulyator, Kaliy gumat, Megafol, Aminokat 30, hosil elementlari.

Kirish

Iqlim o‘zgarishi qurg‘oqchilikni kuchaytirib, tuproq degradatsiyasini tezlashtirmoqda; bunday sharoitda biostimulyatorlar ekinlarning chidamliligini oshirish va hosilni saqlab qolishning barqaror vositalaridan biri sifatida qaralmoqda [1]. Orolbo‘yi hududida esa sug‘orishning kengayishi ikkilamchi sho‘rlanishni kuchaytirgan [2], shu sababli suv va resurslardan tejamli foydalanadigan, stressga moslashuvchan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb. No‘xat oqsilga boy dukkakli don ekini bo‘lib, takroriy ekin sifatida ham yetishtirilishi mumkin, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biostimulyatorlarning no‘xatga ta’siri xorijda keng o‘rganilgan. Losacco va hammualliflari janubiy Italiyaning unumdorligi past va suv bilan cheklangan maydonida mikrob va nomikrob biostimulyatorlarning no‘xat o‘sishi va hosiliga ta’sirini sinab, agronomik belgilar sezilarli o‘zgarganini, ammo natijalar barqarorligini tasdiqlash uchun ko‘p yillik tajribalar zarurligini ko‘rsatgan [1]. Gómez va hammualliflari biostimulyatorni urug‘ga va tuproqqa qo‘llashni uch navda solishtirib, ta’sir faqat unib chiqish davrida sezilarli bo‘lganini, vegetativ rivojlanishda esa farqlar ko‘proq joy va navga bog‘liqligini aniqlagan [3]. Gabilondo va hammualliflari tijorat preparatlariga

uch nav turlicha javob berganini, ya’ni ta’sir navga bog‘liqligini ko‘rsatgan [4]. Bahan va hammualliflari gumin asosidagi stimulyatorni urug‘ga ishlov berish va bargdan oziqlantirish bilan birga qo‘llash hosil elementlarini o‘rtacha 10,0 %, bitta o‘simlikdagi urug‘ vazni bo‘yicha esa 24,0 % gacha oshirganini, ta’sir navga bog‘liqligini qayd etgan [5]. Orolbo‘yi sharoitida Zumrad va Polvon navlarida Kaliy gumat bilan urug‘ ishlovini Megafol va Aminokat 30 bargdan oziqlantirishi bilan birga qo‘llashga oid mahalliy dala ma’lumotlarini to‘plash zarur.

Tadqiqotning maqsadi — Ellikqala tumani sharoitida no‘xatning Zumrad va Polvon navlarida Kaliy gumat bilan urug‘ ishlovi hamda Megafol va Aminokat 30 bilan bargdan oziqlantirishning turli me’yorlarini o‘simlik o‘sishi va hosil elementlariga ta’siri bo‘yicha baholashdir.

Materiallar va metodlar

Dala tajribasi 2026-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumani uy oldi yer maydonida (30 sotix) o‘tkazildi. Hudud iqlimi keskin kontinental: yozda havo harorati 40 °C atrofida, yillik yog‘in taxminan 100–150 mm. Tuman tuproqlari xilma-xil (bo‘z, allyuvial-o‘tloqi, qumli, sho‘rxok va sho‘rtob tuproqlar), sho‘rlanish muammosi mavjud, gumus miqdori nisbatan kam.

Tajribada no‘xatning Zumrad va Polvon navlari o‘rganildi. Tajriba 20 variant va 3 takrorlanishdan (60 ta delyanka) iborat; delyankalar 8 qatorli, qator oralig‘i 0,7 m, uzunligi 10 m, variantlar randomizatsiya usulida joylashtirildi. Urug‘lar Kaliy gumat 20 % bilan (0,4–0,7 l/t) ishlandi; shoxlanish va gullash fazalarida Megafol va Aminokat 30 preparatlari bargdan to‘rt xil me’yorda sepildi (1-jadval). Etalon — Fitovak 20 % immunostimulyatori, nazorat — oddiy suv bilan ishlov. Barcha variantlarda $N_{60}P_{90}K_{60}$ kg/ga me’yorida oziqlantirildi (azot — ammiakli selitra, fosfor — superfos, kaliy — kaliy xlorid); fosfor va kaliyning 100 % miqdori kuzda shudgor ostiga berildi.

1-jadval. Tajriba tizimi (variantlar 1–10 — Zumrad, 11–20 — Polvon)

Zumrad / Polvon	Urug‘ga ishlov, l/t	Shoxlanish davrida, l/ga	Gullash davrida, l/ga
1 / 11 — nazorat	oddiy suv	oddiy suv	oddiy suv
2 / 12 — Fitovak 20% (etalon)	0,3	0,3	0,4
3–6 / 13–16 — K-gumat + Megafol	0,4; 0,5; 0,6; 0,7	0,3; 0,4; 0,5; 0,6	0,4; 0,5; 0,6; 0,7
7–10 / 17–20 — K-gumat + Aminokat 30	0,4; 0,5; 0,6; 0,7	0,2; 0,3; 0,4; 0,5	0,3; 0,4; 0,5; 0,6

Fenologik kuzatishlar va biometrik o‘lchashlar umumqabul qilingan «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (O‘zPITI, 2007) va B.A. Dospexov uslubiy qo‘llanmalari bo‘yicha olib borildi. Hosil yig‘ib olishda har bir variantdan 20 tadan o‘simlik olindi, o‘simlik bo‘yi, umumiy vazni, shoxlar soni, dukkaklar soni va vazni, urug‘lar soni va vazni aniqlandi. Vegetatsiya davri 90–96 kunni tashkil etdi, hosil 14–16-avgustda yig‘ildi. Ma’lumotlarning dispersion tahlili B.A. Dospexov usulida o‘tkaziladi; ushbu maqolada 20 ta o‘simlik o‘rtacha qiymatlari keltirilgan.

Natijalar

Shoxlanish va gullash. Biostimulyator qo‘llangan variantlarda shoxlanish va gullash ko‘rsatkichlari nazoratga nisbatan yuqori bo‘ldi. Masalan, Polvon navida nazoratda shoxlanish soni 1 ta, gullar soni 5–14 dona bo‘lgan bo‘lsa, Megafol 0,5 l/ga (shoxlanish) va 0,6 l/ga (gullash) variantida shoxlanish soni 3 ta, gullar soni 11–26 donaga yetdi. Zumrad navida nazoratda shoxlanish soni 2 ta, gullar soni 6–11 dona, Aminokat 30 0,4 l/ga va 0,5 l/ga variantida esa mos ravishda 3 ta va 5–24 dona bo‘ldi.

Hosil elementlari. Zumrad navida nazoratda o‘simlik bo‘yi 36,8 sm, urug‘lar soni 20,4 dona, urug‘lar vazni 6,85 g bo‘ldi (2-jadval). Biostimulyator qo‘llangan variantlarda (3–10) o‘rtacha bo‘y 39,3 sm, urug‘lar soni 23,4 dona, urug‘lar vazni 8,03 g ni tashkil etdi. Eng yuqori urug‘ vazni 9-variantda (Kaliy gumat 0,6 l/t va Aminokat 30 0,4 hamda 0,5 l/ga) 10,64 g bo‘ldi, bu nazoratdan taxminan 55 % yuqori; urug‘lar soni bu variantda 25,2 dona (nazoratdan taxminan 24 % ko‘p). 10-variantda urug‘lar soni eng ko‘p (25,7 dona) bo‘ldi.

2-jadval. Zumrad va Polvon navlarining hosil elementlari (20 ta o‘simlik o‘rtachasi; № 1–10 — 1-jadvaldagi 1–10 va 11–20 variantlarga mos)

№	Zumrad				Polvon			
	Bo‘yi, sm	Dukkak, dona	Urug‘, dona	Urug‘ vazni, g	Bo‘yi, sm	Dukkak, dona	Urug‘, dona	Urug‘ vazni, g
1	36,8	20,65	20,4	6,85	37,6	19,45	20,6	5,75
2	36,15	16,75	18,9	5,95	36,8	18,90	19,7	7,62
3	38,8	19,80	20,2	6,40	38,7	20,34	21,7	8,01
4	38,7	22,40	23,3	7,30	38,7	20,70	23,1	8,25
5	37,9	22,90	23,2	7,80	38,3	21,40	23,6	9,11
6	39,7	22,70	23,7	7,51	39,9	22,80	24,4	8,65
7	40,05	20,70	21,6	7,91	39,8	21,45	23,8	8,21
8	39,8	22,60	24,1	9,86	38,8	19,65	21,6	9,07
9	39,9	22,80	25,2	10,64	39,8	22,86	24,3	9,85
10	39,6	22,70	25,7	10,96	39,7	22,9	24,8	10,01

Polvon navida nazoratda bo‘y 37,6 sm, urug‘lar soni 20,6 dona, urug‘lar vazni 5,75 g, biostimulyator qo‘llangan variantlarda (13–20) o‘rtacha bo‘y 39,2 sm, urug‘lar soni 23,4 dona, urug‘lar vazni 8,89 g bo‘ldi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar 10-variantda (Kaliy gumat 0,7 l/t va Aminokat 30 0,5 hamda 0,6 l/ga) qayd etildi: urug‘lar soni 24,8 dona, urug‘lar vazni 10,01 g (nazoratdan taxminan 74 % yuqori). Zumradning eng yaxshi varianti urug‘ vazni bo‘yicha Polvonning eng yaxshi variantidan 0,63 g yuqori bo‘ldi.

Preparatlar va me’yorlar. Ikkala navda ham Aminokat 30 variantlarida o‘rtacha urug‘ vazni Megafol variantlariga nisbatan yuqori edi (Zumrad — 8,80 va 7,25 g; Polvon — 9,29 va 8,50 g). Aminokat 30 variantlarida me’yor oshishi bilan urug‘ vazni ortdi (Polvon — 8,21 g dan 10,01 g gacha; Zumrad — 7,91 g dan 10,64 g gacha). Etalon Fitovak 20 % Zumrad navida nazoratdan past (5,95 g), Polvon navida yuqori (7,62 g) natija berdi, ya’ni preparatning ta’siri navga bog‘liq bo‘ldi. Bu holat adabiyotlarda keltirilgan biostimulyatorlarga javobning navga bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlarga mos keladi [4; 5].

Xulosa va tavsiyalar

1) Ellikqala tumani sharoitida biostimulyator qo‘llangan variantlarda no‘xatning bo‘yi, urug‘lar soni va urug‘ vazni nazoratga nisbatan yuqori bo‘ldi. 2) Zumrad navida 9-variant (Kaliy gumat 0,6 l/t + Aminokat 30 0,4 va 0,5 l/ga), Polvon navida 10-variant (Kaliy gumat 0,7 l/t + Aminokat 30 0,5 va 0,6 l/ga) eng yuqori urug‘ vaznini berdi. 3) Aminokat 30 variantlari ikkala navda ham Megafol variantlaridan yuqori o‘rtacha urug‘ vazni ko‘rsatdi; etalon preparat ta’siri navga bog‘liq bo‘ldi. 4) Keltirilgan ko‘rsatkichlar bitta mavsum, 20 ta o‘simlik o‘rtachasi asosida olingan; ularning ishonchliligini dispersion tahlil bilan baholash, gektar hosildorligi va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash hamda tajribani qaytarish zarur. 5) Biostimulyatorlarning issiq, qurg‘oqchil va sho‘rlanish sharoitida stressga chidamlilikka ta’siri bu bosqichda alohida o‘lchanmagan; bu keyingi tadqiqotlar vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Losacco D., Puglisi R., Salvemini C., Convertini S. Effects of microbial and non-microbial biostimulants on chickpea growth, yield, and soil properties in a marginal Mediterranean environment // AgriEngineering. – 2026. – Vol. 8, No. 7. – Art. 268. – DOI: 10.3390/agriengineering8070268.
2. Otenova F.T., Mambetullaeva S.M. Ecological assessment of soil salinization in the southern Aral Sea Region // BIO Web of Conferences. – 2024. – Vol. 103. – Art. 00027. – DOI: 10.1051/bioconf/202410300027.
3. Gómez E., Alonso A., Sánchez J., Muñoz P., Marín J., Mostaza-Colado D., Mauri P.V. Application of biostimulant in seeds and soil on three chickpea varieties: impacts on germination, vegetative development, and bacterial facilitation of nitrogen and phosphorus // Life. – 2024. – Vol. 14, No. 1. – Art. 148. – DOI: 10.3390/life14010148.

4. Gabilondo R., Sánchez J., Muñoz P., Montero-Muñoz I., Mauri P.V., Marín J., Mostaza-Colado D. Evaluation of biostimulatory activity of commercial formulations on three varieties of chickpea // Agriculture. – 2023. – Vol. 13, No. 2. – Art. 474. – DOI: 10.3390/agriculture13020474.
5. Bahan A.V., Shakalii S.M. et al. The effect of humic growth stimulants on the productivity of chickpea (*Cicer arietinum* L.) varieties // Scientific Horizons. – 2024. – DOI: 10.48077/scihor7.2024.53.

3-SHO‘BA IQLIMGA CHIDAMLI TEXNOLOGIYALAR

Nukus · 16.10.2026

Ingichka tolali g‘o‘zani resurstejamkor parvarishlashning fotosintez sof mahsuldorligiga ta’siri

Avazova Muhayyo Ashurali qizi tayanch doktoranti

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti

muxoyyoavazova@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610087

Iqtibos uchun: Avazova Muhayyo Ashurali qizi. Ingichka tolali g‘o‘zani resurstejamkor parvarishlashning fotosintez sof mahsuldorligiga ta’siri // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 336–339. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610087

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingichka tolali Termiz-202 g‘o‘za navini resurstejamkor texnologiya asosida parvarishlashda turli ko‘chat qalinliklari va chilpish usullarining g‘o‘zaning shonalash-gullash va hosil tugish-pishish davrlarida fotosintez sof mahsuldorligiga ta’siri o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: Termiz-202, shonalash-gullash davri, hosil tugish-pishish davri, ko‘chat qalinligi, chilpish usullari, fotosintez sof mahsuldorligi.
Аннотация. В данной статье исследуется влияние различной густоты стояния и методов чеканки на чистую фотосинтетическую продуктивность хлопчатника в периоды цветения, плодообразования и созревания тонковолокнистого сорта хлопчатника Термез-202 с использованием ресурсосберегающих технологий.
Ключевые слова: Термез-202, фаза бутонизации–цветения, фаза образования коробочек–созревания, густота стояния растений, способы чеканки, чистая продуктивность фотосинтеза.
Abstract. This article examines the effect of various plant densities and topping methods on the net photosynthetic productivity of the long staple Termiz-202 cotton variety—cultivated using resource-saving technology—during the squaring-flowering and boll formation and maturation stages.
Keywords: Termiz-202, budding–flowering stage, boll formation–maturation stage, plant density, topping methods, net photosynthetic productivity.

Kirish

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslardan, xususan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, resurstejamkor agrotexnologiyalarni keng joriy etish hamda ekinlarning hosildorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ–47-son «Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida 2026–2028-yillarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydonlar hajmini 3,5 mln gektarga yetkazish hamda ushbu texnologiyalarni qo‘llash hisobiga har yili 5 mlrd m^3 suv resurslarini tejash maqsadlari belgilangan.

Tadqiqotning obyekti va uslubi. So‘nggi yillarda g‘o‘za o‘simligida fotosintez sof mahsuldorligini oshirish masalasi agrar sohada dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda fotosintez jarayonining intensivligi va uning hosildorlik bilan uzviy bog‘liqligi aniqlangan. Xususan, Zhang va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda yorug‘lik sharoitlarining o‘zgarishi barg anatomiyasi va fotosintetik faollikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan.[1]

[1] Zhang Y., Liao B., Li F., et al. (2024).

Ya.A. Babayev, M.A.Avliyakulov va J.U. Abdullayev tavsiyalariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarida va agroklaster maydonlarida Shinjon intensiv texnologiyasini qo‘llab paxta yetishtirilganda yuqori hosil olish mumkinligi aniqlangan.

J.B. Shukurullayev va boshqalar ma’lumotlariga ko‘ra, agrokimyoviy ko‘rsatkichlarning barqaror yaxshilanishi tomchilatib sug‘orilgan maydonlarda uch yil davomida paxta hosildorligining izchil oshishi (4050≤4800 kg/ga) bilan uyg‘un kechdi, egatlab sug‘orilgan nazorat variantida esa hosildorlik deyarli o‘zgarmay qoldi.

G‘.Q.Diyarov olib borgan tajribalariga asosan, 76×10 sm qo‘shqator sxemada 220-240 ming tup/ga ko‘chat qalinligini va plyonka ostida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini g‘o‘zaning vegetativ va generativ rivojlanishini maksimal darajada ta’minlab hosildorlikni 60-70 s/ga darajasida olish mumkinligini aniqladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fotosintez sof mahsuldorligini oshirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u agrotexnik tadbirlar, ekologik sharoitlar va o‘simlikning biologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotlarda o‘rganilgan ingichka tolali Termiz-202 g‘o‘za navining fotosintez sof mahsuldorligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlarga ko‘ra, quyidagi holatlar aniqlandi (1-2-jadvallar).

2024-yil kuzatuvlariga asosan, shonalash-gullash davrida fotosintez sof mahsuldorligi bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkich (variantlar bo‘yicha) 10-variant sojean preparatini 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga, shonalash boshlanganda 15 g/ga, gullash boshlanganda 22,5 g/ga, gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga, hosil to‘plash davrida 60 g/ga, chilpishdan oldin 120 g/ga qo‘llanilgan fonning ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga variantida bir sutkada 15,20 g/m^2 ni tashkil qilganligi aniqlandi. Keyingi o‘rinlarda 4-7-variantlarda fotosintez sof mahsuldorligi bir sutkada mos ravishda 13,40-14,14 g/m^2 ni tashkil qilgan. Xuddi shunday hosil to‘plash – pishish davrida esa eng yaxshi ko‘rsatkich 9-11-12-variantlarda mos ravishda fotosintez sof mahsuldorligi bir sutkada 12,11-12,42-12,87 g/m^2 tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval. Turli ko‘chat qalinligi va chilpish usullarining ingichka tolali g‘o‘zaning fotosintez sof mahsuldorligiga ta’siri, 2024 y

T/r	Chilpish usullari	Ko‘chat qalinligi, ming tup/ga	Fotosintez sof mahsuldorligi, g/m^2 bir sutkada	
			Shonalash-gullash davri	Hosil tugish-pishish davri
1	Chilpilmagan	140	12,28	10,43
2		170	12,37	11,22
3		200	11,05	11,66
4	Qo‘lda (16-18 hosil bo‘g‘inda)	140	13,40	10,55
5		170	12,61	11,20
6		200	12,49	11,58
7	Sojean Shonalash davrida 15 g/ga Gullash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 90 g/ga	140	14,14	10,72
8		170	13,18	11,48
9		200	12,88	12,11
10	Sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga Shonalash boshlanganda 15 g/ga Gullash boshlanganda 22,5 g/ga Gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 60 g/ga Chilpishdan oldin 120 g/ga	140	15,20	10,93
11		170	13,92	12,42
12		200	13,28	12,87

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610087

2025-yil kuzatuvlariga asosan, shonalash-gullash davrida fotosintez sof mahsuldorligi bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkich (variantlar bo‘yicha) 10-variant sojean preparatini 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga, shonalash boshlanganda 15 g/ga, gullash boshlanganda 22,5 g/ga, gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga, hosil to‘plash davrida 60 g/ga, chilpishdan oldin 120 g/ga qo‘llanilgan fonning ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga variantida bir sutkada 17,43 g/m^2 ni tashkil qilganligi aniqlandi.

2-jadval. Turli ko‘chat qalinligi va chilpish usullarining ingichka tolali g‘o‘zaning fotosintez sof mahsuldorligiga ta’siri, 2025 y

T/r	Chilpish usullari	Ko‘chat qalinligi, ming tup/ga	Fotosintez sof mahsuldorligi, g/m^2 bir sutkada	
			Shonalash-gullash davri	Hosil tugish-pishish davri
1	**Chilpilmagan**	**140**	14,26	10,71
2		**170**	14,56	11,56
3		**200**	13,31	11,66
4	**Qo‘lda (16-18 hosil bo‘g‘inda)**	**140**	15,84	11,05
5		**170**	15,03	11,64
6		**200**	14,71	12,15
7	**Sojean Shonalash davrida 15 g/ga Gullash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 90 g/ga**	**140**	16,37	11,49
8		**170**	15,33	12,09
9		**200**	15,39	12,80
10	**Sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga Shonalash boshlanganda 15 g/ga Gullash boshlanganda 22,5 g/ga Gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 60 g/ga Chilpishdan oldin 120 g/ga**	**140**	17,43	11,14
11		**170**	16,52	12,75
12		**200**	17,26	12,44

Keyingi o‘rinlarda 12-11-variantlarda fotosintez sof mahsuldorligi bir sutkada mos ravishda 17,26-16,52 g/m^2 ni tashkil qilgan. Xuddi shunday hosil to‘plash-pishish davrida esa eng yaxshi ko‘rsatkich 9-11-12-variantlarda mos ravishda fotosintez sof mahsuldorligi bir sutkada 12,80-12,75-12,44 g/m^2 tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa

2024-2025-yillar bo‘yicha ko‘rish mumkinki, fotosintez sof mahsuldorligi shonalash-gullash davridagi eng yaxshi ko‘rsatkichlar (variantlar bo‘yicha) 10-variant sojean preparatini 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga, shonalash boshlanganda 15 g/ga, gullash boshlanganda 22,5 g/ga, gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga, hosil to‘plash davrida 60 g/ga, chilpishdan oldin 120 g/ga qo‘llanilgan fonning ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga variantida bir sutkada yillar bo‘yicha 15,20 va 17,43 g/m^2 tashkil qilganligi aniqlandi. Xuddi shunday sojean sepilgan fonning hosil tugish-pishish davriga kelib esa nisbatan eng yaxshi ko‘rsatkich (variantlar bo‘yicha) yillar bo‘yicha 11-12-variantlarda mos ravishda fotosintez sof mahsuldorligi bir sutkada 12,42-12,87 va 12,75-12,44 g/m^2 tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi «Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-47-son qarori
2. Shukurullayev J.B., Xamidov A.M., Avezov Sh.M. «Tomchilatib sug‘orishda tuproq agrokimyoviy xossalarining o‘zgarishi va uning paxta hosildorligiga ta’siri». Agro ilm jurnali 7-son [128]2026. -B-134
3. Karimov Sh. G‘o‘zaning quruq massa to‘plashi va fotosintez mahsuldorligiga yangi stimulyatorlarning ta’siri. Xalqaro konferensiya maqola to‘plami O‘zPITI. Toshkent.2012.-B-156-158

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610087

4. Diyarov G‘.Q. Samarqand viloyati sharoitida 76×10 sxemada qo‘sh qatorlab plyonka ostiga tomchilatib sug‘orish usulida g‘o‘za yetishtirishning afzalliklari. «O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi» jurnali №4 2026y. -B-30
5. Babayev Ya.A., Avliyakulov M.A., Abdullayev J.U. «Shinjon intensiv texnologiyasining paxta yetishtirishdagi samaradorligi». «Agro ilm» jurnali 2-son 2026.-B-4

3-SHO‘BA IQLIMGA CHIDAMLI TEXNOLOGIYALAR

Nukus · 16.10.2026

Virgin archasi (Juniperus virginiana) daraxtining ekologik xususiyatlarini o‘rganish

Aytimov I.A. q.x.f.f.d. (PhD), dotsent · **Sultanova A.A.** magistr

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610088

Iqtibos uchun: Aytimov I.A., Sultanova A.A. Virgin archasi (Juniperus virginiana) daraxtining ekologik xususiyatlarini o‘rganish // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 340–342. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610088

Annotatsiya. Maqolada Virgin archasi tabiatda turli iqlim sharoitlariga moslasha olishi, qurg‘oqchilikka va sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turishi qayd etilgan. Shuningdek, bu daraxt atmosfera havosini tozalash, chang va zararli moddalarni kamaytirish hamda fitonsid moddalar ajratish xususiyatiga ega. Bu moddalar havodagi ayrim bakteriya va mikroorganizmlarning rivojlanishini cheklaydi. Shu sababli ushbu daraxt shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish, park va bog‘larni tashkil etishda keng qo‘llaniladi.

Abstract. The article notes that in nature, the Virgin juniper is distinguished by its ability to adapt to various climatic conditions and its resistance to drought and cold. This tree also has the ability to purify atmospheric air, reduce dust and harmful substances, and secrete phytoncides. These substances limit the development of certain bacteria and microorganisms in the air. Therefore, this tree is widely used in urban landscaping, parks and gardens.

Аннотация. В статье отмечается, что в природе можжевельник виргинский отличается способностью адаптироваться к различным климатическим условиям, устойчивостью к засухе и холоду. Это дерево также обладает способностью очищать атмосферный воздух, уменьшать количество пыли и вредных веществ, а также выделять фитонциды. Эти вещества ограничивают развитие некоторых бактерий и микроорганизмов в воздухе. Поэтому это дерево широко используется в городском озеленении, парках и садах.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhitning ifloslanishi, atmosfera havosini tozalash, o‘simlik, Virgin archasi ekotizimda muhim ekologik vazifani bajaradi.

Kirish

Tuqımlardıń kógeriw waqıtı da egiw máwsimine qarap ózgergen: báhárde egilgen tuqımlar 25–30 kúnde, jazda egilgen tuqımlar 10–12 kúnde kógerip shıqqan. Laboratoriya sharayatında tuqımlardıń ónip shıǵıwı 23 °C-den joqarı temperaturada baslanıp, óniw dárejesi 85–90% bolǵanı keltirilgen. Atız sharayatında bir ósimlikten 250–270 tuqım tógiliwi, olardıń 10–15%-i topıraqqa tógiliwi hám topıraqtaǵı tuqımlardıń kógeriw kórsetkishi 30–34% bolıwı da baqlawlarda kórsetilgen.

Vegetativ usılda kóbeytiw. Tamır paqaldan ajıratılǵan jas ósimlikler gúzde (oktyabr) hám báhárde (aprel) egilip sınalǵan. Eki múddette de kógeriw dárejesi 95–100%, saqlanıw kórsetkishi 85–90% bolǵan. Berilgen maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda, vegetativ kóbeytiwde egiw múddetleri boyınsha kógeriw kórsetkishi joqarı bolǵan. Biraq gúzgi egis nálleriniń erte báhárde tez ósiwi hám rawajlanıwı menen ajıralıp turǵan.

Gúzde egilgen ósimliklerde vegetaciya dawamında 8 jup japıraq payda bolıp, bir japıraqtaǵı bólekshe sanı ortasha 13±2 danaǵa jetken. Tiykarǵı paqal biyikligi 85,3±3,6 sm bolǵan. Aprel ayında egilgen nállerde japıraqlardıń payda bolıwı aprel ayınıń aqırında baqlanıp, tiykarǵı paqalda ortasha 6 jup japıraq, bir japıraqta 11±1,5 bólekshe hám paqal biyikligi 72,8±2,2 sm bolǵan. Bul kórsetkishler gúzgi egis variantında ósimliktiń ósiw kórsetkishleri joqarı bolǵanın bildiredi.

3-keste. Vegetativ kóbeytiwde egiw múddetine baylanıslı kórsetkishler

Egiw múddeti	Kógeriw, %	Saqlanıw, %	Tiykarǵı paqal biyikligi
Oktyabr (gúz)	95–100	85–90	85,3±3,6 sm
Aprel (báhár)	95–100	85–90	72,8±2,2 sm

Juwmaq

1. Dárilik valeriananı tuqımnan kóbeytiwde egiw múddeti, tereńligi hám egiletuǵın orın kógeriw dárejesine tásir etedi.

2. Berilgen dala baqlawlarında iyul–avgust aylarında egilgen tuqımlardıń kógeriw dárejesi 56,6% bolıp, mart–may aylarındağı 25–30% kórsetkishinen joqarı bolǵan.

3. Tuqım egiw tereńligi boyınsha eń joqarı kógeriw 0,2 sm variantında — 46,6% — baqlanǵan. Saya orında egilgen tuqımlardıń kógeriw dárejesi 56–60% bolǵan.

4. Vegetativ usılda tamır paqaldan ajıratılǵan jas ósimliklerdiń kógeriw dárejesi 95–100%, saqlanıwı 85–90% bolǵan. Gúzgi egiste tiykarǵı paqal biyikligi 85,3±3,6 sm, báhárgi egiste 72,8±2,2 sm bolǵan.

5. Berilgen nátiyjeler tiykarında valeriananı tuqımnan kóbeytiw ushın iyul–avgust aylarında saya jerde, 0,2 sm tereńlikte egiw variantın keyingi tájiriybelerde tekseriw usınıladı. Vegetativ kóbeytiw ushın oktyabr ayında egilgen tamır paqalı nállerin de qollanıw maqsetke muwapıq.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Abdiniyazova G.J., Rasbergenova D.R. Valeriana officinalis L. – medicinal properties of the plant and cultivation technology. 2023. B. 50–54.
2. Abdunazarov E.E. Toshkent vohasi sharoitidagi dorivor valeriana (Valeriana officinalis) ning introduktsiyasi va bioekologik xususiyatlari: biologiya fanları kandidatı dissertaciyası. Toshkent, 2010. 120 b.
3. Abzalov A.A., Berdiev E.T., Qayimov A.Q., Ahmedov Ó.A., Xolmuratov M.Z., Yulchieva M.T. Námatak plantatsiyasini barpo etish texnologiyasi bóyicha tavsiyanoma. Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2012. B. 4–6.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3-jild. Toshkent: Xalq merosi, 1993. 311 b.
5. Adekenov S.M. Sovremennoe sostoyanie i perspektivy proizvodstva otechestvennyx fitopreparatov i biotexnologicheskoy produkcii dlya mediciny. Farmatsiya Kazaxstana. Almaty, 2003. № 2. S. 21–22.
6. Ahmedov O., Ergashev A., Abzalov A., Yulchiyeva M., Azimboyev S. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent, 2018.
7. Bakhiev A., Butov K.N., Dauletmuratov S. Lekarstvennye rasteniya Karakalpakii. Tashkent: Fan, 1983. 136 s.

4-SHO‘BA ILMIY G‘OYALAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Nukus · 16.10.2026

Orolbo‘yi hududida suv sarfi va tuproq sho‘rlanishini raqamli monitoring qilishning innovatsion usuli

Saparniyazova Gulbaxar Kalievna assistent

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

saparniyazova1972@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610187

Iqtibos uchun: Saparniyazova Gulbaxar Kalievna. Orolbo‘yi hududida suv sarfi va tuproq sho‘rlanishini raqamli monitoring qilishning innovatsion usuli // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 708–711. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610187

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orolbo‘yi hududida suv resurslaridan samarali foydalanish va tuproq sho‘rlanishini nazorat qilishga qaratilgan raqamli monitoring tizimini ishlab chiqish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi suv sarfi, tuproq namligi, elektr o‘tkazuvchanligi va meteorologik ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish orqali sug‘orish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvni taklif etishdan iborat. Monitoring tizimida fizik sensorlar, raqamli ma’lumotlarni qayd etish vositalari, matematik modellashtirish va Python dasturlash tilidan foydalanish nazarda tutiladi. Taklif etilayotgan yondashuv suv tanqisligi sharoitida sug‘orish samaradorligini oshirish, sho‘rlanish xavfini erta aniqlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarining barqaror hosildorligini qo‘llab-quvvatlash uchun amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi, suv resurslari, tuproq sho‘rlanishi, raqamli monitoring, elektr o‘tkazuvchanlik, tuproq namligi, fizik sensorlar, Python, iqlimga chidamli texnologiyalar.

Kirish

Orolbo‘yi hududida suv resurslarining cheklanganligi, sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi va iqlim sharoitining o‘zgarishi qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Suvdan samarasiz foydalanish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga, balki tuproqning meliorativ holati yomonlashishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli sug‘orish jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish, tuproq va suv holatini muntazam kuzatib borish hamda o‘lchash natijalarini tezkor tahlil qilish dolzarb vazifadir.

An’anaviy monitoring usullarida ayrim ko‘rsatkichlar davriy ravishda o‘lchanadi va natijalar qo‘lda qayd etiladi. Bunday yondashuv qisqa muddatda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni aniqlash imkoniyatini cheklashi mumkin. Raqamli sensorlar va kompyuterda ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari esa kuzatuvlarni tizimli tashkil etish, o‘zgarishlar dinamikasini baholash va sug‘orish bo‘yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tuproq sho‘rlanishini baholashda uning elektr o‘tkazuvchanligi muhim fizik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Elektr o‘tkazuvchanlik tuproq eritmasidagi erigan ionlar miqdori bilan bog‘liq bo‘lib, tegishli sharoitlarda sho‘rlanish darajasini baholashga yordam beradi. Biroq o‘lchash natijalariga tuproq namligi, harorat, o‘lchash usuli va sensorning xususiyatlari ham ta’sir qiladi. Shu sababli elektr o‘tkazuvchanlik qiymatini tuproqning boshqa ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

Mazkur ishda fizik o‘lchash usullari va raqamli tahlilni birlashtiruvchi, nisbatan arzon vositalar asosida amalga oshirish mumkin bo‘lgan monitoring tizimi taklif etiladi.

Tadqiqotning maqsadi va metodikasi

Tadqiqotning maqsadi Orolbo‘yi sharoitida suv sarfi va tuproq sho‘rlanishini kompleks monitoring qilish hamda olingan ma’lumotlar asosida sug‘orish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi raqamli metodikani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilanadi:

- tuproq namligi, elektr o‘tkazuvchanligi, harorat va suv sarfi kabi asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash;
- sensorlardan olingan ma’lumotlarni raqamli shaklda qayd etish va tizimlashtirish;
- fizik kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni matematik tahlil qilish;
- Python dasturlash tili yordamida o‘lchash natijalarini grafik ko‘rinishda ifodalash;
- suv sarfi va sho‘rlanish xavfini baholash uchun monitoring algoritmini taklif etish.

Taklif etilayotgan tizim uchta asosiy qismdan tashkil topadi: o‘lchash moduli, ma’lumotlarni qayta ishlash moduli va qaror qabul qilishga yordam beruvchi tahlil moduli.

Birinchi qismda tuproq namligi sensori, elektr o‘tkazuvchanlikni o‘lchash qurilmasi, harorat sensori hamda suv sarfini aniqlovchi hisoblagichdan foydalanish mumkin. Ikkinchi qismda o‘lchash natijalari kompyuter yoki mikrokontrollerga uzatiladi. Uchinchi qismda esa ma’lumotlar tahlil qilinib, sug‘orish ehtiyoji va sho‘rlanish xavfi to‘g‘risida tavsiyalar shakllantiriladi.

Suvdan foydalanish samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin:

$$E_w = \frac{V_u}{V_s} \times 100\%$$

bu yerda E_ω — suvdan foydalanish samaradorligining tanlangan mezoni, V_u — ekin yoki ildiz zonasida foydali foydalanilgan suv hajmi, V_s — sug‘orish uchun berilgan umumiy suv hajmi.

Mazkur ifoda suvning foydali ishlatilgan qismini baholash uchun soddalashtirilgan mezondir. Uni amaliy qo‘llashda foydali suv hajmini aniqlash usuli aniq belgilanishi va tuproqdagi suv zaxirasi, bug‘lanish, oqim hamda chuqur filtratsiya kabi omillar hisobga olinishi lozim.

Tuproq sho‘rlanishini monitoring qilishda elektr o‘tkazuvchanlik (EC) ko‘rsatkichi qayd etiladi. O‘lchash natijalarini taqqoslash uchun namuna tayyorlash usuli, harorat va o‘lchash sharoitlari bir xil bo‘lishi kerak. Tuproqning to‘yingan pasta ekstrakti elektr o‘tkazuvchanligi (EC_e) bilan bevosita sensor ko‘rsatkichlari bir xil kattalik emas; ular orasidagi bog‘lanish tegishli kalibrlash asosida aniqlanadi.

Raqamli monitoring va matematik modellashtirish

Monitoring tizimining muhim afzalligi o‘lchash natijalarini muntazam yig‘ish va vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni tahlil qilish imkoniyatidir. Masalan, tuproq namligi belgilangan chegaradan kamayganda sug‘orish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Elektr o‘tkazuvchanlikning bir necha kuzatuv davomida ortishi esa sho‘rlanish xavfini chuqurroq tekshirish uchun signal bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda qaror faqat bitta sensor qiymatiga asoslanmasligi kerak. Tuproq turi, ekinning rivojlanish bosqichi, ildiz zonasidagi namlik, sug‘orish suvi sifati va drenaj sharoiti ham hisobga olinadi. Elektr o‘tkazuvchanlikning ortishi sho‘rlanish ehtimolini ko‘rsatishi mumkin, biroq o‘z-o‘zidan hosildorlik pasayganini isbotlamaydi.

Python dasturlash tilidan ma’lumotlarni qayta ishlash, o‘rtacha qiymatlarni hisoblash, vaqt bo‘yicha grafiklar tuzish va ogohlantirish mezonlarini tekshirishda foydalanish mumkin. Masalan, quyidagi kod sensorlardan olingan namunaviy qiymatlar asosida kuzatuv ko‘rsatkichlarini grafikda taqqoslaydi:

```
import matplotlib.pyplot as plt

# Namunaviy ma’lumotlar; dala o‘lchovlari emas
```

```
kun = [1, 2, 3, 4, 5, 6]
namlik = [28, 26, 24, 21, 19, 17]
ec = [1.2, 1.3, 1.3, 1.5, 1.6, 1.8]

fig, ax1 = plt.subplots()

ax1.plot(kun, namlik, marker=«o»,
label=«Tuproq namligi»)
ax1.set_xlabel(«Kuzatuv kuni»)
ax1.set_ylabel(«Namlik, %»)

ax2 = ax1.twinx()
ax2.plot(kun, ec, marker=«s»,
label=«Elektr o‘tkazuvchanlik»)
ax2.set_ylabel(«EC, mS/cm»)

plt.title(«Tuproq holatining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi»)
fig.tight_layout()
plt.show()
```

Ushbu dastur ikki ko‘rsatkichning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini alohida vertikal o‘qlarda ko‘rsatadi. Koddagi sonlar faqat dastur ishlashini namoyish etish uchun keltirilgan bo‘lib, ular Orolbo‘yi hududida o‘tkazilgan haqiqiy tajriba natijalari hisoblanmaydi. Amaliy tadqiqotda bu qiymatlar kalibrlangan sensorlardan olingan o‘lchash natijalari bilan almashtiriladi.

Taklif etilayotgan tizimning keyingi bosqichida tuproq namligi, elektr o‘tkazuvchanlik, suv sarfi va meteorologik ma’lumotlarni yagona ma’lumotlar bazasiga birlashtirish mumkin. Bu esa kuzatuv natijalarini taqqoslash, sug‘orish rejimlarini baholash va turli sharoitlar uchun matematik modellar ishlab chiqishga yordam beradi.

Muhokama va kutilayotgan amaliy natijalar

Taklif etilayotgan raqamli monitoring usuli bir necha muhim amaliy imkoniyatlarni yaratadi. Birinchidan, tuproq namligining o‘zgarishini kuzatish sug‘orish vaqtini belgilashda qo‘shimcha axborot beradi. Ikkinchidan, elektr o‘tkazuvchanlik dinamikasi sho‘rlanish xavfi ortayotgan maydonlarni aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, suv sarfi haqidagi ma’lumotlar sug‘orish samaradorligini taqqoslash va ortiqcha suv sarfi yuzaga kelayotgan jarayonlarni aniqlash imkonini beradi.

Tizimning yana bir afzalligi uning modulli tuzilishidir. Dastlab bir kichik tajriba maydonida bir nechta sensor yordamida sinov o‘tkazish, keyinchalik esa tizimni boshqa maydonlarga kengaytirish mumkin. Ma’lumotlarni mobil qurilma yoki kompyuterda qayta ishlash orqali katta va qimmat laboratoriya infratuzilmasiga bo‘lgan ehtiyojni ayrim vazifalarda kamaytirish mumkin.

Shu bilan birga, sensorlarni muntazam kalibrlash, o‘lchash xatoliklarini baholash va ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish talab etiladi. Turli tuproq turlarida bir xil sensor ko‘rsatkichi turlicha fizik sharoitlarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun monitoring natijalari laboratoriya tahlillari va dala kuzatuvlari bilan tekshirilishi zarur.

Kelgusidagi tajriba bosqichida taklif etilayotgan usulni Orolbo‘yi hududidagi tanlangan sug‘oriladigan maydonda sinash, an’anaviy kuzatuv natijalari bilan taqqoslash hamda suv sarfi, tuproq namligi va sho‘rlanish ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘lanishini statistik tahlil qilish rejalashtirilishi mumkin. Bunday yondashuv tizimning aniqligi, iqtisodiy samaradorligi va amaliy qo‘llash chegaralarini baholashga imkon beradi.

Xulosa

Orolbo‘yi hududida suv resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq sho‘rlanishini nazorat qilish uchun fizik o‘lchash vositalari, raqamli monitoring va matematik modellashtirishni birlashtiruvchi yondashuv taklif etildi. Ushbu yondashuv tuproq namligi, elektr o‘tkazuvchanlik, suv sarfi va meteorologik ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilishga asoslanadi.

Python dasturlash tilidan foydalanish ma’lumotlarni qayta ishlash, grafik tahlil va sug‘orish jarayonini baholash algoritmlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Taklif etilayotgan tizimni dala sharoitida sinash va laboratoriya o‘lchovlari bilan tekshirish uning aniqligi hamda samaradorligini aniqlashning muhim shartidir. Mazkur metodika suv tanqisligi va sho‘rlanish muammolarini hal etishga qaratilgan iqlimga chidamli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirish uchun istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ayers R. S., Westcot D. W. *Water Quality for Agriculture*. FAO Irrigation and Drainage Paper 29, Rev. 1. Rome: FAO, 1985.
2. Rhoades J. D., Chanduvi F., Lesch S. *Soil Salinity Assessment: Methods and Interpretation of Electrical Conductivity Measurements*. FAO Irrigation and Drainage Paper 57. Rome: FAO, 1999.
3. Allen R. G., Pereira L. S., Raes D., Smith M. *Crop Evapotranspiration: Guidelines for Computing Crop Water Requirements*. FAO Irrigation and Drainage Paper 56. Rome: FAO, 1998.
4. Van Rossum G., Drake F. L. *Python 3 Reference Manual*. Scotts Valley, CA: CreateSpace, 2009.

4-SHO‘BA ILMIY G‘OYALAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Nukus · 16.10.2026

Shirin qalampir (Capsicum annuum L.) sabzavotining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va yetishtirish texnologiyasini o‘rganish

Seilbekov R.B. «Meva-sabzavotchilik va polizchilik» kafedrasi dotsenti v.b., q.x.f.f.d. (PhD) · **Xojabaev R.** «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik» mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610188

Iqtibos uchun: Seilbekov R.B., Xojabaev R. Shirin qalampir (Capsicum annuum L.) sabzavotining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va yetishtirish texnologiyasini o‘rganish // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 712–715. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610188

Annotatsiya. Ushbu maqolada shirin qalampir (Capsicum annuum L.) sabzavotining ozuqaviy qiymati, insonlar iste’molidagi ahamiyati va foydali xususiyatlari, yurtimiz sabzavotchiligi va eksportidagi o‘rni haqida qisqacha ilmiy tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, shirin qalampirning ekishga tavsiya etiladigan mahalliy navlari, ularning ilmiy tajribalar natijasida aniqlangan ekish usullari, ekish muddati va sxemalari bayon etiladi.
Kalit so‘zlar: Shirin qalampir, navlar, vitaminlar, minerallar, ekish muddati, ekish sxemalari, norma, kapsaitsin.
Аннотация. В данной статье проводится краткий научный анализ пищевой ценности овощей сладкого перца (Capsicum annuum L.), их значения в потреблении людьми и полезных свойств, а также их роли в овощеводстве и экспорте нашей страны. Наряду с этим описываются местные сорта сладкого перца, рекомендуемые для посева, методы посева, сроки и схемы посева, определенные в результате научных экспериментов.
Ключевые слова: Сладкий перец, сорта, витамины, минералы, сроки посадки, схемы посадки, норма, капсаицин.
Abstract. This article provides a brief scientific analysis of the nutritional value of sweet pepper (Capsicum annuum L.) vegetable, its importance in human consumption and beneficial properties, and its role in our country’s vegetable growing and export. Along with this, local varieties of sweet pepper recommended for planting, their planting methods, planting dates and schemes determined as a result of scientific experiments are described.
Keywords: Sweet pepper, varieties, vitamins, minerals, sowing dates, sowing schemes, norm, capsaicin.

Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, butun dunyo global siyosatida muhim bo‘lgani singari, bizning davlatimizda ham ushbu masala eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buni mamlakatimizda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni yaqqol tasdiqlaydi.

Gap bu masala to‘g‘risida borar ekan, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan yoxud iste’mol qilinadigan har bir mahsulot insonlarning kundalik hayotida o‘z ahamiyati va o‘rniga ega. Shuni inobatga olgan holda ushbu maqolamiz davomida, oziq-ovqat ratsionimizdagi eng kerakli mahsulotlardan biri hisoblangan shirin qalampir sabzavoti to‘g‘risida, adabiyotlardagi muhim ma’lumotlarga asoslangan holda fikr yuritamiz.

Kelib chiqishi. Yurtimizda, xalq orasida oddiy tilda «bolgarskiy» deb yuritiladigan bu o‘simlikning vatani Markaziy Amerika hisoblanadi. Kolumb tomonidan Amerika qit’asi kashf

etilgandan keyin shirin qalampir Yevropa, Osiyo va boshqa qit’alarning davlatlariga tez tarqala boshlagan. Dastlab qalampir 15-asrlarda Ispaniya va Portugaliyada yetishtirila boshlandi. Portugaliyaliklar tomonidan boshqa Osiyo davlatlari va Afrika qit’asi davlatlariga yetkazildi. Rossiyaga esa XVI asrda Eron va Turkiyadan kirib kelgan.



Ahamiyati. Ma’lumki, shirin qalampir kundalik oziq-ovqat ratsionidagi eng muhim sabzavot mahsulotlarining biri. U vitaminlarga, mineral elementlarga va ishtahani ochuvchi moddalarga boy bo‘lishi bilan boshqa sabzavot turlaridan ajralib turadi. Jumladan, uning tarkibida C, A, B1, B2, B3, B6, B9, P, E vitaminlari va bundan tashqari temir, kalsiy, natriy, magniy, xlor, ftor, marganes, mis, kobalt, sink, fosfor, xrom kabi, odam organizmi uchun juda ahamiyatli hisoblanadigan minerallar mavjud. 100 gr shirin qalampir mevasi 29 kkal. ga ega bo‘ladi.

Bu sabzavot mahsulotining oziq-ovqat sifatidagi eng ijobiy xususiyatlaridan biri shundaki, u ham biologik, ham texnik yetilgan holda iste’mol qilinishi mumkin. Meva hosil bo‘lgandan keyin 35-45 kunda texnik yetiladi. Bu payt meva normal yiriklik, xushbo‘y hid va mazali ta’mga kirgan bo‘ladi. Lekin shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, shirin qalampir mevasi biologik yetilganida, o‘zining eng foydali oziqlik xususiyatlariga ega bo‘ladi.



Yetishtirish texnologiyasi. Shirin qalampir O‘zbekistonning iqlim sharoitlariga mos keluvchi asosiy bir yillik ekinlardan biri hisoblanadi. Chunki u issiqsevar o‘simlik bo‘lib, urug‘ining unib chiqishi, o‘sib-rivojlanishi va meva tugishi uchun yuqori haroratni talab etadi. Lekin yurtimizdagi yozning o‘ta issiq kunlaridan himoya qilish maqsadida, birmuncha ertaroq ko‘chatlarini yetishtirib olib, qulay sharoit kelishi bilanoq, ochiq maydon yoki himoyalangan maydonlarga ko‘chirib o‘tqazish mumkin. Bu hosilning sifati va mahsuldorligiga ancha ijobiy natija beradi. Har qanday ekin turini ekishdan avval uning ekilish muddati va sxemalariga e’tiborli bo‘lishimiz lozim. Bu faktorlar undan kutiladigan hosilga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shirin qalampirni urug‘idan ekish uchun tuproq harorati +14+15°C, havo harorati esa +28°C dan past bo‘lmasligi, tuproqning nisbiy namlik sig‘imi 80-85% atrofida bo‘lishi lozim. Ko‘chatidan ekish uchun janubiy viloyatlarda martning uchinchi o‘n kunligida, markaziy viloyatlarda aprelning ikkinchi-uchinchi o‘n kunligida, shimoliy hududlarda esa aprelning uchinchi va mayning birinchi o‘n kunligida ekish tavsiya etiladi. Ko‘chatlar 70×30 yoki 70×40 sxemalari (qatorlar oralig‘i 70, qator ichidagi o‘simliklar orasi 30-40 sm) tartibida ekiladi. Yer osti suvlari yaqin bo‘lgan joylarda 90×25 sxemada ekish tavsiya etiladi.

Respublikamizda yetishtiriladigan shirin qalampirning bir nechta navlari chet elga eksport qilinadi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turganidek, bu uning ahamiyatini yanada oshiradi. O‘zbekiston shirin

qalampirni asosan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Belorussiya davlatlariga eksport qiladi. Shu bilan bir qatorda, Janubiy Koreya va ayrim Yevropa davlatlariga eksport qilish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Asosiy eksport uchun may oyidan oktabr oyigacha ochiq maydon mahsulotlari chiqariladi. Noyabrdan aprelgacha issiqxona mahsulotlarining eksporti amalga oshiriladi. Bu, albatta, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun qo‘shimcha tushumlarni ta’minlaydi.

1-jadval. Biologik yetilib pishgan shirin qalampirning kimyoviy tarkibi

Suv	Uglevodlar	Oqsillar	Kletchatka	Yog‘lar	Minerallar
90-92%	5-6%	1%	1.5-2%	0.3%	0.6%

2-jadval. Iste’mol qilinishi (jon boshiga miqdori)

Kunlik iste’mol	Yillik iste’mol	100 gr mahs. kaloriyasi
35-40 gr	13-14 kg	29 kkal.

3-jadval. 100 gr to‘liq pishgan qizil rangli mahsulot tarkibidagi vitaminlar miqdori

C	A	B1	B2	B6	B9	E
128 mg	4.60 mg	0.06 mg	0.01 mg	0.3 mg	46 mkg	1.6 mg

Navlari. Shirin qalampirni yetishtirishda navlarni to‘g‘ri tanlash undan yuqori va sifatli hosil olishimizni ta’minlaydi. Quyida qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reestriga kiritilgan va ochiq maydonlar uchun mo‘ljallangan mahalliy navlarni ko‘rib chiqamiz.

4-jadval. Shirin qalampirning mahalliy navlari



Nargiza. Ertapishar nav bo‘lib, 110-120 kunda texnik yetiladi. Bo‘yi o‘rtacha 45-55 sm atrofida bo‘ladi. Meva vazni texnik yetilganda 55-60 gr, biologik (to‘liq) yetilganda esa 85-100 gr keladi. Meva rangi texnik yetilganda och limon rang, biologik yetilganda esa tiniq qizil rangda bo‘ladi.



Sabo. Ertapishar nav, 110-120 kunda texnik yetiladi. Bo‘yi o‘rtacha 45-50 sm. Texnik yetilganda, mevasining vazni 55-60 gr, biologik yetilganda esa 75-90 gr keladi. Mevasining rangi – texnik yetilganda och sarg‘ish rang, biologik yetilganda to‘q limon rang.



Zarya Vostoka. O‘rta-ertapishar nav, texnik pishgunga qadar o‘suv davri 116-120 kun. Bo‘yi 45-50 sm atrofida, mevasining vazni 64-70 gr. Texnik yetilganda qaymoq rang, biologik yetilganda esa qizil rangda bo‘ladi.



Dar Tashkenta. O‘rtapishar nav bo‘lib, o‘sish davri – texnik pishguncha 120-125 kun, biologik pishguncha 140-145 kun. Mevasining o‘rtacha vazni 110-115 gr, texnik yetilganda sarg‘ish, biologik yetilganda qizil rangda bo‘ladi. Turli maqsadlarda ishlatishga yaroqli, issiqqa chidamli nav hisoblanadi.



Tong. O‘rtapishar nav, texnik pishgunga qadar o‘sish davri 128 kun, bo‘yi 50 sm. Mevasi o‘rtacha bo‘lib, texnik pishganda och yashil, biologik pishganda och qizil rangli, vazni esa 45 gr.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, shirin qalampir Capsicum (Qalampir) turkumiga mansub, achchiq bo‘lmagan chuchuk tur hisoblanadi. Uning achchiq emasligining asosiy sababi genetik tarkibida kapsaitsin moddasining yo‘qligidir. Bu modda achchiq qalampirlarga o‘tkir ta’m beruvchi asosiy birikma hisoblanadi. Shirin qalampir esa Capsicum turkumidagi ushbu moddani ishlab chiqarmaydigan yagona vakildir. Chunki shirin qalampirda kapsaitsin hosil bo‘lishini bloklaydigan maxsus resessiv gen mavjud. Bu gen sababli o‘simlik achchiq ta’m beruvchi birikmalarni sintez qilmaydi va mevasining achchiqlik darajasi nolga teng. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, agar shirin qalampir achchiq qalampir bilan yonma-yon ekilsa, changlanish natijasida shirin qalampirning urug‘lari biroz achchiq bo‘lib qolishi mumkin. Ammo shunda ham uning mevasining eti chuchukligicha qoladi.







Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.
2. B.J. Azimov B.B. Azimov «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi», darslik. Toshkent-2002. 164-165-b.
3. T.I. Ostonaqulov, B.I. Zuev, O. Qodirxo‘jaev «Sabzavotchilik», darslik Toshkent-2009. 349-353-b.
4. Erejepova G. Jadigerova M. «Sabzavot eginleri biologiyası», darslik. Toshkent-2025. 15-21-b.
5. Nancy Lopez-McHugh «Why Aren’t Bell Peppers Spicy», maqola. // The Spruce Eats, 2023.

4-SHO‘BA ILMIY G‘OYALAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Nukus · 16.10.2026

Agrobiznes faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari va davlat siyosati

Seyfullaeva Ayzada Tolıbekovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

ayzadaseyfullaeva@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610189

Iqtibos uchun: Seyfullaeva Ayzada Tolıbekovna. Agrobiznes faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari va davlat siyosati // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 716–719. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610189

Annotatsiya. Agrobiznesning maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘liq qondirish tufayli daromadlarni ko‘paytirish hisoblanadi. Agrobiznesning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartlardan biri bu – uning huquqiy-me’yoriy asoslarini puxta shakllantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi siyosatni amalga oshirishdir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida agrar sohani modernizatsiyalash va uning bozor munosabatlariga moslashuvi aynan qonunchilik bazasining mavjudligi va rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: Agrobiznes faoliyati, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo‘jaligi haqida»gi va «Fermer xo‘jaligi haqida»gi qonunlari.

Kirish

Agrobiznes agrosanoat majmuasining tarkibida bo‘lib, u nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini, balki qayta ishlash, saqlash va tashish, qishloq xo‘jaligiga texnika va o‘g‘itlar ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi. Agrobiznes har qanaqa davlat iqtisodiy tizimining zarur elementi hisoblanadi. Bizga ma’lumki, xalqning hayot darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar samaradorligiga bog‘liq. Shuning hisobidan qishloq xo‘jaligi komplekslarining maksimal samaradorligiga erishish uchun innovatsiyaviy xizmatni tashkil etish juda zarur hisoblanadi.

Agrobiznes agrosanoat majmualari tizimidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga yo‘naltirilgan iqtisodiy tadbirkorlik faoliyati sifatida ta’riflanishi mumkin. Ushbu biznesning asosini bozor tashkil etadi. Agrobiznesning maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘liq qondirish tufayli daromadlarni ko‘paytirish hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mahalliy agrobiznes ichki va tashqi bozorda yaxshi raqobatlasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Agrobiznesning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartlardan biri bu – uning huquqiy-me’yoriy asoslarini puxta shakllantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi siyosatni amalga oshirishdir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida agrar sohani modernizatsiyalash va uning bozor munosabatlariga moslashuvi aynan qonunchilik bazasining mavjudligi va rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo‘jaligi haqida»gi va «Fermer xo‘jaligi haqida»gi qonunlari qabul qilinishi bilan fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligining martabasi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ma’nosi hamda tashkiliy-iqtisodiy asoslari, qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqarish bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyekti sifatidagi umumiy va a’lo tomonlari aniq belgilab berildi. Bu qonunga 2004-yil 26-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilgan. Mana shu qonun hujjatlari bilan agrobiznes faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan fermer va dehqon xo‘jaliklarini tashkillashtirish, boshqarish, tartibga solish va bartaraf etish masalalari tartibga solindi.

Tadqiqot uslublari. Fermer xo‘jaligi agrobiznes faoliyati qishloq xo‘jalik yuritishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy o‘zgachaliklarga ega bo‘lib, buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik tomondan	Jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini – oila va unga mos bo‘lgan etika-tarbiyaviy qadriyatlarga, shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi xalqning ijtimoiy tarkibi
Tashkiliy-huquqiy tomondan	Yuridik shaxs maqomiga (o‘z balansi, hisob raqami, muhri va hokazo) ega bo‘lishi shart
Mehnat munosabatlari tomondan	Xo‘jalikda a’zolar mehnati bilan birgalikda yollanma mehnatdan foydalanish mumkin.
Ishlab chiqarish yo‘nalishi tomondan	Ishlab chiqarish ichki iste’mol va asosan bozorga yo‘naltirilgan tovar xo‘jaligi
Mulkiy munosabatlar tomondan	– ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik; – yer maydoni uzoq muddatli ijaraga (eng kamida 30 yildan 50 yilgacha) beriladi, ijara muddatida ijara huquqini meros etib qoldirish mumkin.

1-jadval. Fermer xo‘jaligi agrobiznes faoliyatining xususiyatlari

Fermer xo‘jaliklari o‘z faoliyatini quyidagi huquqlar asosida amalga oshiradi: ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, mahsulotni erkin sotish, foydani mustaqil taqsimlash. Shu bilan birga, ular majburiyat ham oladilar, jumladan:

- yer uchastkasidan maqsadli foydalanish;
- yer unumdorligini saqlash va oshirish;
- agrotexnik tadbirlarni belgilangan muddatda amalga oshirish;
- ijtimoiy himoya va mehnat sharoitlarini ta’minlash;
- majburiy sug‘urtalash va fondlarga ajratmalarni to‘lash.

Ilmiy ishning natijasi. Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari asosan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Konstitutsiya, 1992), Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Soliq kodeksi, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» (1998), «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida» (2000) qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari.

Xususan, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonun (1998-yil 30-aprel) va unga 2004-yil 26-avgustda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar fermer xo‘jaliklarining huquqiy maqomini, faoliyat yuritish tartibini va resurslardan foydalanish qoidalarini belgilab berdi (Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi Qonun, 1998). Unga ko‘ra, fermer xo‘jaliklari yuridik shaxs hisoblanadi va o‘z mehnati natijasiga egalik qiladi.

Shuningdek, «Yer to‘g‘risida»gi Qonun va Yer kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida yer davlat mulki hisoblanadi va u faqat uzoq muddatli ijaraga — odatda 10 yildan 50 yilgacha — beriladi. Bu yerda asosiy prinsip shuki, yer shaxsiy mulkka aylantirilmaydi, ammo uni meros qilib qoldirish huquqi mavjud (Yer to‘g‘risidagi Qonun, 1998; Yer kodeksi, 1998).

Davlat siyosati jihatidan muhim hujjatlardan biri bu — Prezidentning 2018-yil 26-apreldagi PQ–3702-sonli Qarori bo‘lib, unda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini modellashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va mahsulotni eksportga yo‘naltirish mexanizmlari ko‘zda tutilgan (PQ–3702, 2018).

Mazkur qarorga binoan, har bir tuman darajasida «Fermer xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi» tashkil qilinib, ularning faoliyatini moliyalashtiruvchi fondlar yaratish belgilangan. Bu esa fermerlar o‘rtasida kooperatsiya va resurslarni birgalikda boshqarishni kuchaytirdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «Qishloq xo‘jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi» agrar tarmoqda raqamlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalarni keng tatbiq etish va eksport salohiyatini oshirishni nazarda tutadi (PQ–5853, 2019).

Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa agrobiznes huquqiy asoslari respublika va mahalliy qonun hujjatlari bilan uyg‘un holda qo‘llanilmoqda. Misol uchun, Jo‘qorg‘i Kenges va Vazirlar Kengashining qarorlari asosida suv tanqisligi sharoitida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda (QRVK Qarorlari, 2022).

O‘zbekiston Respublikasining «Yer haqida»gi qonuni va «Yer kodeksi»ga muvofiq respublikamizda yer to‘la davlat mulki bo‘lib, uni oldi-sotdi qilish yoki sovg‘a qilish mumkin emas. «Fermer xo‘jaligi haqida»gi qonunda fermer xo‘jaligini yurgizish uchun fuqarolarga yer uchastkalari 50 yilgacha, ammo 10 yildan kam bo‘lmagan muddatga ijaraga berilishi ko‘zda tutilgan.

Fermer xo‘jaligi agrobiznes faoliyatiga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer maydonini ijara muddati davomida meros etib qoldirish huquqi berilgan. Fermer xo‘jaligida ishlab chiqarish asosan xo‘jalik a’zolarining yakka mehnatiga asoslanadi. Shu bilan birga, qonunga ko‘ra fermer xo‘jaligida ishlarni bajarishga o‘zga shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha qo‘shilishi mumkin.

Prezidentimizning 2018-yil 26-apreldagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar haqida»gi qarori shu sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish va mustahkamlash uchun sharoit yaratdi. Sababi, bu hujjatga muvofiq, barcha tumanlarda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalariga shartnoma asosida zarur moddiy resurslar, masalan, urug‘lar, nihollar, texnika va boshqa uskunalar yetkizib berish, yerlarni rekultivatsiya qilish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, sug‘orish tizimini yaratish va yaxshilash, suv nasoslarini o‘rnatish, artezian quvurlarini qazish va tomchilatib sug‘orishni yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar va qishloq xo‘jaligi ekinlarini ichki va tashqi bozorlarda sotish, ayniqsa, ularni tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga yordamlashadigan korxonalar va fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash fondi tuzilishi ularning rivojlanishida yangi sahifa ochadi.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda qishloqlarda dehqonchilik ishlari bilan shug‘ullanadigan va dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan kooperatsiyalar tashkillashtirish uchun ham qulay imkoniyat yaratish kerak. Bu, birinchidan, dehqonlar va tomorqa egalari uchun tanlash imkoniyatini kengaytiradi, ikkinchidan, raqobat muhitini rivojlantiradi. Oxirida qaysi tashkillashtirilgan institut samarali bo‘lsa, kelajakda shu qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 56 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel, №611-I. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Yer to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni, 2000-yil 25-dekabr. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi PQ–3702-sonli Qarori. // www.lex.uz

4-SHO‘BA ILMIY G‘OYALAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR
Nukus · 16.10.2026 • UDK 632.3 632.4

Nukus tumanida kuzgi bug‘doyning asosiy kasalliklarini aniqlash va qarshi kurash choralarini qo‘llash

Seytniyazova Ánjim Maxset qizining O‘simliklarni himoya qilish va karantini 1-kurs magistri, ORCID ID: 0009-0001-6484-376 · **Durshimbetov ispandiyar kerimbergenovich** «O‘simliklar himoyasi va karantini» kafedrasi dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD), ORCID ID: 0009-0007-7487-976

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

anjimseytniyazova@gmail.com, durshimbetovispandiyar@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610190

Iqtibos uchun: Seytniyazova Ánjim Maxset qizining, Durshimbetov ispandiyar kerimbergenovich. Nukus tumanida kuzgi bug‘doyning asosiy kasalliklarini aniqlash va qarshi kurash choralarini qo‘llash // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 720–722. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610190

Annotatsiya. Kuzgi bug‘doyning asosiy kasalliklarini aniqlash va monitoring o‘tkazish, shuningdek aniqlangan kasalliklarga qarshi kurash choralarini qo‘llash.
Kalit so‘zlar: Un shudring, septorioz, ildiz chirish, sariq va qo‘ng‘ir zang kasalliklarining oldini olish hamda qarshi kurash choralari.
Аннотация. Выявление и мониторинг основных заболеваний озимой пшеницы, а также применение мер борьбы с выявленными заболеваниями.
Ключевые слова: Меры по предотвращению и борьбе с мучнистой росой, септориозом, корневой гнилью, желтой и бурой ржавчиной.
Abstract. Identify and monitor the main diseases of winter wheat, as well as apply measures to combat identified diseases.
Keywords: Diseases and prevention and control measures for powdery mildew, septoria, root rot, yellow and brown rust.

Kirish

Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi qishloq xo‘jaligi davlatlarida bug‘doy ekinlarida fuzarioz, septorioz, un shudring, sariq zang va qo‘ng‘ir (jigarrang) zang kabi kasalliklar keng tarqalib, hosilga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bu kasalliklar global miqyosda (ayniqsa, nam va salqin ob-havo sharoitida) hosildorlikni sezilarli darajada pasaytiradi – zarar darajasi nav va yil sharoitlariga qarab 10–60% gacha yetishi mumkin. Bug‘doy kasalliklarini samarali boshqarish uchun yangi himoya vositalarini izlash, ularni sinovdan o‘tkazish va joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Profilaktik choralar (toza urug‘, almashlab ekish, o‘g‘it balansini saqlash, chidamli navlardan foydalanish) va agrotexnik usullar patogenlar sonini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, kasalliklarning ommaviy avj olishi va kuchli tarqalishi sharoitida bu choralar ko‘pincha yetarli bo‘lmay qoladi. Shuning uchun O‘zbekistonda bug‘doy yetishtirishni barqaror saqlash maqsadida ruxsat etilgan fungitsidlar assortimentini kengaytirish, ularni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llash asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sariq zang (Puccinia striiformis), qo‘ng‘ir zang (Puccinia triticina) va un shudring (Blumeria graminis f.sp. tritici) kasalliklari bug‘doyda eng keng tarqalgan va xavfli hisoblanadi. Namlik yuqori va harorat qulay bo‘lgan yillarda bu kasalliklar tez rivojlanib, o‘simliklarning fotosintez jarayonini buzadi, hosildorlikni 10–40% (ba’zan undan ham yuqori) ga tushiradi hamda donning sifatini (protein, gluten, og‘irligi) keskin pasaytiradi.

Donli ekinlar orasida bu kasalliklar eng ko‘p uchraydigan va zarar keltiruvchi bo‘lib, so‘nggi yillarda intensiv yetishtirish, navlarning bir xillashuvi va iqlim o‘zgarishi ta’sirida yanada kuchaygan. O‘zbekistonning turli mintaqalarida (ayniqsa, namroq va sug‘oriladigan hududlarda) hosildorlik va don sifatiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori. Zarar darajasi navning chidamliligiga, ob-havo sharoitiga va monitoring vaqtiga qarab 14–40% gacha yetishi mumkin.

Bug‘doyning kasalliklarining tavsifi, ularning yetkazadigan zarari

Chang qorakuya bilan zararlangan boshoqlarning o‘zagidan tashqari barcha qismlari qo‘ng‘ir, to‘q-qo‘ng‘ir, deyarli qora tusli teliosporalarga aylanadi. Ular oldin oqish parda bilan qoplangan bo‘lib, keyinroq bu parda yirtiladi, teliosporalar changga o‘xshab, tarqalib ketadi. Qattiq qorakuya bilan zararlangan boshoqda don po‘sti butunligicha qoladi, ammo uning ichi don qismlariga emas, balki qo‘ng‘ir, to‘q-qo‘ng‘ir, deyarli qora tusli teliosporalarga to‘la bo‘ladi, bunday don qorakuya xaltachalari deb ataladi. Iqtisodiy miqdor mezoni bo‘yicha urug‘lik dorilanadi.

Bug‘doyning **qo‘ng‘ir zang** kasalligi. Bug‘doy kasalliklaridan eng keng tarqalgani bug‘doyning qo‘ng‘ir zangi (barg zangi) hisoblanadi, u O‘zbekistonda ham barcha bug‘doy ekiladigan mintaqalarda har yil uchraydi, ba’zi dalalarda kuchli rivojlanadi va hosilga sezilarli zarar yetkazadi. Iqtisodiy miqdor mezoni bo‘yicha 10% va undan ko‘p o‘simliklar barglarida 1-2 tadan zang yostiqchalari bo‘lsa, kurash choralari olib boriladi.

Bug‘doyning **sariq zang** kasalligi. Sariq zang bug‘doyda O‘zbekistonning barcha bug‘doy ekiladigan mintaqalarida har yili uchramaydi, odatda Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida ko‘proq kuzatiladi. Bu kasallik bir necha (6-10) yilda bir marta ko‘p viloyatlarga tarqalishi va epifitotiya shaklida rivojlanib, hosilga juda katta zarar yetkazishi mumkin.

G‘alla ekinlarining **un shudring kasalliklari**. Qo‘zg‘atuvchi zamburug‘ning konidiyalari shamol bilan boshqa o‘simliklarga oson tarqaladi va ularni zararlaydi. Un shudring 15-20°C va havoning nisbiy namligi 96-99% da juda tez tarqaladi va rivojlanadi.

Bug‘doyning **fuzarioz** kasalligining zarari. Bug‘doyning fuzarioz kasalligi bug‘doy hosildorligini kuchli zararlangan dalalarda 50% gacha pasaytirishi kuzatiladi. Fuzarioz kasalligining bug‘doyning unib chiqish davridan boshlab to vegetatsiya oxirigacha kasallantirish bosqichlari har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Fuzarioz kasalligini bug‘doyda Fusarium turkumiga mansub F.avenaceum, F.culmorum, F.graminearum turlari keltirib chiqaradi. Fuzarioz kasalligining bug‘doy unib chiqqandan keyingi belgilari bug‘doyning yon ildizlarini chiritib, bitta urug‘dan bitta poya, bitta boshoq hosil bo‘ladi. Sababi, fuzarioz bilan kasallangan o‘simliklarda tuplanish fazasi kam bo‘ladi yoki tuplanish bo‘lmaydi. Vegetatsiya davomida fuzarioz bilan kasallangan o‘simliklar sarg‘ayib so‘liy boshlaydi. Kasallangan o‘simliklarning bo‘g‘inlari to‘q jigarrangga kiradi va sinadi. Natijada fuzarioz bilan kasallangan o‘simlik vegetatsiya oxiriga yetmasdan sarg‘ayib qurib qoladi.

Monitoring o‘tkazish

Monitoring 2025-yilning mart-aprel oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus tumanidagi «Nurdawlet-Azizbek» fermer xo‘jaligiga qarashli bug‘doy dalalarida o‘tkazildi.

Dalani tekshirish usuli: Dalani diagonal yo‘nalishda har 5–10 gektarga 10–20 ta nuqta tanlab, har nuqtada kamida 20 – 100 ta o‘simlik diqqat bilan ko‘rib chiqildi (barglarning yuqori va pastki tomoni, poya, boshoq).

Qayd etish: Fotosurat, zarar darajasi daftarga yozib olindi. Ob-havo (namlik, harorat) va nav ma’lumotlari ham daftarga kiritildi. Kasallik rivojlanishini oldindan aniqlash uchun ob-havo ma’lumotlari (nam, iliq kunlar) va oldingi yil natijalari solishtirildi.

1-jadval. Umumiy monitoring natijalari

№	Kasallik nomi (o‘zbekcha)	Ilmiy nomi / Qo‘zg‘atuvchi	Belgisi (sizning holatingiz bo‘yicha)
1	Un shudring	Blumeria graminis f.sp. tritici	+
2	Fuzarioz (ildiz chirishi)	F.avenaceum, F.culmorum, F.graminearum	+
3	Septorioz	Mycosphaerella graminicola	-
4	Sariq zang	Puccinia striiformis	-
5	Qo‘ng‘ir zang	Puccinia triticina (P. recondita)	-
6	Chang qorakuya (chang qora kuya)	Ustilago tritici	-

Izoh: (+) belgisi bilan belgilanganlar monitoring natijasida aniqlangan kasalliklar.

Qarshi kurash choralari: Almashlab ekish. Yerni chuqur shudgorlash, begona o‘tlarni yo‘qotish. Bahorgi va kuzgi g‘alla ekinlarini bir-birining o‘rniga yoki yaqin joylashtirmaslik. Un shudring kasalliklariga nisbatan chidamli bo‘lgan navlarni ekish. Bug‘doy kasalliklari iqtisodiy zarar yetkazish (IZM) mezoni darajasidan oshganda tavsiya etilgan kimyoviy himoya qilish vositalarini qo‘llash. Urug‘lik donni fungitsid urug‘dorilar bilan dorilab ekish. Un shudring kasalligining oldini olishda tuplanish va naychalash davrida propikonazol+siprokonazol tarkibli fungitsidlar bilan ishlov berish. Fuzarioz kasalligining oldini olish maqsadida ekish davrida urug‘larni dorilash ishlarini olib borish, bunda tebukonazol tarkibli preparatlar bilan ishlov berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hasanov B.O., Ochilov R.O. Bug‘doyning zang kasalliklarini aniqlash, hisobga olish va ularga qarshi kurash choralarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent: O‘zR Qishloq xo‘jaligi vazirligi nashriyoti, 2010.
2. Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, БАВ и фунгицидов. / Отв. ред. Ходжаев Ш.Т. – Ташкент: O‘zO‘HQITI, 2004. – 78 с.
3. Bug‘doyni zararli organizmlariga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimida boshqarish (IPM) Q.B. Bababekov, J.X. Raxmonov, N.S. Xaytbaeva, M.I. Abdillaev, N.M. Turdiyeva, Toshkent-2022 19-21-38 bet.

Isbilermenlikti rawajlandırıwda innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıwdı jetilistiriw

Sh.Sitmuratov «Ekonomika hám buxgalteriya esabı» kafedrası baslıǵı, e.i.f.d.

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610191

Iqtibos uchun: Sh.Sitmuratov. Isbilermenlikti rawajlandırıwda innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıwdı jetilistiriw // Aralboyı aymaǵında suwdan paydalanıw nátiyjeliligi hám shorlanıwdıń awıl xojalıǵı eginleri zúráátligi hámde xalıqtıń turmıs iskerligine tásirin monitoring etiw hám qadaǵalaw ushın klimatqa shıdamlı innovaciyalıq texnologiyalardı islep shıǵıw: xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları. – Nókis, 2026. – B. 723–725. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610191

